

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

YENGIL ATLETIKA

fanidan

MA'RUZALAR MATNI
(maxsus sirtqi bo'lim talabalari uchun)



NAMANGAN-2007 YIL

Biz o'z iste'dodli, fidoyi bolalarimizga,
farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt
etishi uchun qanot berishimiz kerak.

I.A.Karimov

Engil atletika bo'yicha uslubiy qo'llanma

Mualliflar:

dotsent. X.U.Ortiqov
katta o'qituvchi A.Nazimov

Taqrizchi:

p.f.n. B.Madaminov.

Ushbu ma'ruzalar matni «Jismoniy tarbiya nazariyasi va sport turlarini o'qitish uslubi» kafedrasida va fakultet, Namangan davlat universiteti o'quv-uslubiy hay'ati tomonidan ko'rib chiqilgan.

1-MAVZU: ENGIL ATLETIKA RIVOJLANISHINING TARIXI

Reja

1. Engil atletika sport turining kelib chiqishi.
2. Engil atletika Gretsiyada va Olimpiya o'yinlarida.
3. Zamonaviy engil atletikani tiklanishi va pasayishi.
4. Hozirgi zamon Olimpiya o'yinlari.
5. Mustaqil O'zbekiston Olimpiada o'yinlaridagi ishtiroki

SAVOLLAR

1. Engil atletika mashqlari qachon kelib chiqqan?
2. Jismoniy tarbiyada, engil atletika ma'lum darajada qachon mustaqil bo'la boshladi?
3. Er.av. Olimpiya o'yinlari qachon o'tkazilgan?
4. Nechanchi Olimpiya o'yinlaridan boshlab ayollar uchun engil atletika musobaqalari o'tkazildi?
5. Eng avval boshqa mamlakatlarga qaraganda engil atletika qaysi davlatda rivojlana boshladi?
6. 1952 yili qaysi davlatda Olimpiya o'yini o'tkazildi?
7. O'zbekiston sportchilari mustaqil davlat sifatida nechanchi yildan boshlab engil atletikadan Olimpiya o'yinlarida qatnasha boshladilar?
8. Nechanchi Olimpiya o'yinlaridan boshlab ko'pkurash bo'yicha musobaqa o'tkazildi?

TAYANCh IBORALAR

1. Engil atletika mashqlari
2. Olimpiada
3. Stadiya
4. Stadion
5. Musobaqa
6. Nizom
7. Atletika klubi
8. Assotsiatsiya
9. Mahorat
10. To'garak
11. Federatsiya
12. NAAF

1. Engil atletika sport turining kelib chiqishi

Engil atletika mashqlarining kelib chiqishi tarixi juda qadim zamonlardan boshlanadi.

Odamlar yugurish, sakrash va uloqtirishni tabiiy zarur harakat sifatida qadim zamonlardan beri mehnatda va kundalik hayotda qo'llab kelganlari ma'lum. Ammo ularning

jismoniy tarbiya vositasi sifatida va sportning bir turi sifatida rasm bo'lganiga qadar kup ming yillar o'tdi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida engil atletika mashqlari odamlarning mehnat faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ular insoniyat quldorlik jamiyatiga o'ta boshlashiga yaqin jismoniy tarbiyada ma'lum darajada mustaqil bo'la boshladi. Engil atletika jismoniy mashqlarning boshqa turlari qatori ular quldorlikning harbiy jismoniy tayyorgarligida katta o'rin egalladi va qabilalar hamda umum yunon diniy bayramlarining muhim qismini tashkil etadigan bo'ldi. Bunday tantanalarning eng ahamiyatlisi Olimpiya o'yinlari hisoblanadi.

Ko'p manbaalarda ayniqsa, xalq turmushida tez yugurish, yugurib kelib uzunlikka sakrash va tosh uloqtirishdan iborat uch kurash mavjud bo'lgan.

Feodalizm davrida hamma vaqt xalq jismoniy mashqlari an'anaviy o'yin-kulgular xarakterida bo'lib, faqat bayram kunlari o'tkazilar edi. Burjua jamiyatida yugurish, sakrash va uloqtirish dastlab jismoniy tarbiya gimnastika tizimiga kiritilar, kundalik hayotda qo'llanar edi. Lekin, bu engil atletika sporti tashkil topishiga muhim ta'sir ko'rsata olmaydi. Chunki gimnastika sistemasida bu mashqning ahamiyati asosiy bo'lmay ikkinchi darajali edi.

Yugurish, sakrash va uloqtirish mustaqil jismoniy mashq sifatida va engil atletika sportining muhim elementlari sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan tashkil topa boshladi. Bunga yoshlar orasida bunday mashqlarga qiziqish ustunligi burjuaziya ham o'z hukmronligini kuchaytirish vositasi sifatida jismoniy tarbiyaga qiziq boshlagani sabab bo'ldi.

Burjuaziya kapitalistik korxonalar uchun jismoniy baquvvat ishchilarga va bosqinchilik armiyasi uchun soldatlarga muhtoj edi. Shuning uchun an'anaviy xalq o'yin kulgularidan olingan atletik mashqlarga e'tibor beera boshladi. Bular orasida takomillashish jarayonida sportcha yugurish, sakrash va uloqtirish tusini olib, engil atletika sporti tarkibiga kiradigan yugurish, sakrash va uloqtirish mashqlari ham bor edi.

2. Engil atletika qadimgi Gretsiyada va Olimpiya o'yinlarida.

Qadim zamonda Olimpiya shahrida chaqqonlik va kuchlilik uchun musobaqalar o'tkazib turilar edi. Olimpiya o'yinlari miloddan avvalgi 776 yili o'tkazilgan. Bu musobaqalar bayram sifatida o'tkazilgan. Har 1417 kunda bu qaytarilgan. U Olimpiada yili deb hisoblangan. Olimpiya bo'ladigan oyda hamma oilaviy janjallar to'xtatilgan, urush ham to'xtagan, haqiqiy bayram bo'lgan. Gretsiya davlatida bu o'yinda eng kuchli, chaqqon, tezkor kishilarni olqishlaganlar. Bu olimpiya o'yinlarida greklar qatnashgandar xolos, arablarga ruxsat etilmagan. Bu musobaqaga sistemali ravishda 10-11 oy tayyorgarlik ko'rishgan. Ayollar Olimpiya o'yinlariga qatnashmaganlar, qatnashganlarga o'lim jazosi berilgan. Eramizdan avvalgi 5 asrda Gretsiyada forslar ustidan g'alaba qilingandan keyin Olimpiya shahriga xram (haykal) o'rnatilib, keyinchalik o'shaning oldida sportchilar qasamyod qilganlar. Birinchi marta atletlar musobaqalashganlar xolos.

Yaqin yarim asr Olimpiya o'yinlarida, bayramlarda o'sha distantsiya bo'ldi. Eramizdan avvalgi 724 yildagi 14-Olimpiya o'yinlaridan boshlab, 2 stadiya yugurishdan musobaqa o'tkazila boshlandi.

15-Olimpiya o'yinlaridan boshlab yangi engil atletika turlari bo'yicha o'tkazila boshlandi, 24 stadia.

18-Olimpiya o'yinlaridan boshlab, beshkurash (pentatlan) bo'yicha o'tkazila boshlandi, eramizdan avvalgi 708 yil.

Turgan holatda 3 marta (somernikni) erga tashlash kerak edi. Uzunlikka kopyo, disk va kurash bo'yicha musobaqalashishar edilar. Uzunlikka sakrovchini ikki qo'lida gantelasi bo'lishi kerak edi. Disk, kopyo balandroq joydan pastga qarab uloqtirilar edi. Ko'p yillar mobaynida Olimpiya o'yinlari bir kunda o'tkazilar edi.

77-Olimpiya o'yinlaridan keyin (eramizdan avvalgi 472 yilda) 3 kunda o'tkaziladigan bo'ldi.

Eramizdan avvalgi 444 yili 84-Olimpiya o'yinlarida tarixchi Geredot, filosof Suqrot, yozuvchi Luqmon va matematik Pifagorlar qatnashdilar. Ular zo'r atletlar edilar.

1168 yil davomida har to'rt yilda bir marta Olimpiyada o'yinlari o'tkazilib turiladi.

Eramizdan avvalgi 394 yilda Rim imperatori Feodosiy Olimpiya o'yinlarini to'xtatib qo'ydi.

522-551 yillarda bo'lgan qattiq er qimirlashi Olimpiya stadioniga qattiq shikast etkazib, u er ostida qolib ketdi. XIX asr oxiriga kelib arxeloglar uni kovlab topdilar.

OLIMPIYA O'YINLARI

No	Yil	Shahar	No	Yil	Shahar
1	1896	AFINA	15	1952	Xelsinki
2	1900	PARIJ	16	1956	MELBURN
3	1904	SENT-LUI	17	1960	RIM
4	1908	LONDON	18	1964	TUNIS
5	1912	STOKGOLM	19	1968	MEXIKO
6	1916	O'tkazilmagan	20	1972	MYuNXEN
7	1920	ANTVERPEN	21	1976	----
8	1924	PARIJ	22	1980	MOSKVA
9	1928	AMSTERDAM	23	1984	Los-Anjelos
10	1932	LOS-ANJELOS	24	1988	SEUL
11	1936	BERLIN	25	1992	BARSELONA
12	1940	BO'LMAGAN	26	1996	ATLANTA
13	1944	BO'LMAGAN	27	2000	SIDNEY
14	1948	LONDON	28		

1928 yilda Amsterdamdagi 9-Olimpiadada birinchi marta ayollar uchun engil atletika musobaqalari o'tkaziladi. Shundan keyingi barcha o'yinlar ham, musobaqalar ham o'tkazilib kelindi.

3. Zamonaviy engil atletikani tenglashishi va pasayishi

Engil atletika Angliyada boshqa mamlakatlarga nisbatan oldinroq rivojlana boshladi. Bu erda dastlabki musobaqa 1837 yili 2 km Regbi shahrida kollej o'quvchilar o'rtasida bo'ldi. Ularga ko'p o'tmay tashabbusga binoan Itol, Oksford, Kembridj, London va boshqa shaharlardagi kollej o'quvchilari ham qo'shildilar. Musobaqalarga keyinchalik esa qisqa masofaga yugurish, to'siqlar osha yugurish va og'ir narsalarni uloqtirish qo'sha boshladilar.

1851 yildan boshlab musobaqalar dasturiga yugurib kelib balandlikka va uzunlikka sakrash turi ham qo'shildi. 1864 yildan boshlab o'quv yurtlari orasida birinchi bor engil atletika musobaqasi o'tkazilib, keyin esa bunday musobaqalar har yili o'tkazilib turiladigan bo'ldi. Bu musobaqalarga yugurishni 6 turi va Konfutsiylik uloqtirish va yadro uloqtirish bilan to'ldirildi. Tarixda birinchi bor 1964 yili Angliyada sport klublari "Havaskorlik" to'g'risida Nizom qabul qilindi. 1865 yilga kelib Londonda atletika klubi tashkil topib keyinchalik engil atletika sportini keng ommalashtira boshlandi. Angliyada havaskorlar engil atletika assotsiatsiyasi 1880 yilda tuzulib, u Britaniya imperiyasida engil atletikadan eng oliy organ huquqini oldi. U butun Angliyadagi klublarni birlashtirdi.

Frantsiyada esa engil atletika sport turi sifatida o'tgan asrning 70 yillarida rivojlana boshladi. 80-yillar oxirida Frantsiya burjuaziyasi "Atletik sport frantsuz" jamiyatining asotsiatsiyasini tuzdilar.

Amerikada engil atletikaning rivojlanishi 1868 yildan Nyu-York atletika klubi tuzilib, shu yili birinchi marta engil atletikadan musobaqa o'tkazilgan.

Germaniyada birinchi marta engil atletika musobaqalarini 1888 yildan boshlab o'tkazilgan edi. Mustaqil engil atletika klublari esa 90 yillarda paydo bo'ldi. 1898 yilda engil atletika rahbar tashkiloti - Germaniya engil atletika boshqarmasi tuzildi.

Skandinaviya engil atletika mustaqil sport turi sifatida 1887 yilda Shvetsiyada, 1897 yilda Norvegiyada va 1906 yilda Finlyandiya rasm bo'la boshladi.

Vengriya, Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya va boshqa markaziy Evropa mamlakatlarida engil atletika sporti o'tgan asrning 90-yillarida rivojlana boshladi. Ko'p mamlakatlarda engil atletika sport turi sifatida XIX asr oxirlarida qabul qilindi.

Engil atletika sport taraqqiyotida qadimgi grek Olimpiya o'yinlarining 1896 yilda katta yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1965 yilgacha Olimpiya o'yinlari faqat 15 marta o'tkazilgan edi. Harbiy harakatlar va boshqa sabablar bilan 1916 yilda Berlinda, 1940 yilda Tokioda, 1944 yilda Xelsinkida o'tkazilishi mo'ljalangan Olimpiya o'yinlari bo'lmay qolgan edi. Birinchi va ikkinchi jahon urushi o'rtasidagi qariyb hamma olimpiyalarda engil atletikadan AQSh sportchilari katta muvaffaqiyatga erishib keldilar. Frantsiya, Angliya, Germaniya, Shvetsiya va Finlyandiya engil atletikachilari ular bilan jiddiygina bellashar, ayrim turlarda esa, ulardan tuzukroq natijalar ko'rsatar edilar. Ikkinchi jahon urushidan keyin engil atletika sporti taraqqiyotida anchagina o'zgarishlar bo'ldi. Bu davrda hamma mamlakatlar engil atletikachilarining yutuqlar darajasi sezilarli yuksaldi, bu sport turida kuchlar nisbati o'zgaradi. Sobiq sovet ittifoqi boshchiligidagi sotsialistik lager mamlakatlari sportchilari ayniqsa katta yutuqlarga erishdilar.

Jahon engil atletikasi taraqqiyotida Xelsinkida o'tkazilgan XV Olimpiya o'yinlaridagi 1952 yil musobaqalarning ahamiyati katta bo'ldi. Unda 70 mamlakat ishtirok etib, sovet sportchilari 2, AQSh engil atletikachilari 1-o'rinni egalladilar.

Tokiodagi XVII Olimpiya o'yinlaridagi engil atletikachilar musobaqalari engil atletika tarixida nihoyatda katta voqea bo'ldi. Musobaqalar hamma qit'alar engil atletikachilarining mahorati juda ham o'sib ketganini ko'rsatdi. 2 ta jahon rekordi qo'yildi va 70 dan ortiq olimpiya rekordlari yangilandi.

Ko'pgina qadimiy madaniyat yodgorliklari qissalar, dostonlar va boshqa tarixiy xujjatlar vatanimiz xalqlari ijtimoiy taraqqiyotining bosqichlaridan yugurish, sakrash va uloqtirishdan kundalik hayotda foydalanganliklarida dalolat beradi.

XVIII asr o'rtalarida yozilgan birinchi rus harbiy kitoblaridan biri "Uchenie o xitrostyx rannogo zreniya pixotnix lyudey" - degan kitobda askarlarga uzoq piyoda yurishni, yugurishni, nayza ishlatishni va turli to'siqlardan sakrab o'tishni o'rgatishdan ko'rsatmalar bo'lgan. Yugurish, sakrash va uloqtirish 18-19 asrlar davomida rus xalqi turmushidagi rasm, odatlar bo'lib, ular shahar va qishloq aholisining xalq bayramlariga kiritilgan.

Rossiyadagi hozirgi zamon engil atletikasi rivojlana borishida Peterburg yaqinidagi Gerlevo degan joydagi yoshlar tashabbuskor bo'ldilar.

1888 yilda P.P.Paskvin va uning do'stlari tashabbusi bilan mamlakatda 1-engil atletika to'garagi paydo bo'ldi. Rossiyada engil atletika sportining bundan keyingi taraqqiy topishi 1889 yilda tashkil qilingan sport havaskorlarinin Peterburg to'garagi faoliyati bilan bog'liq bo'ldi. To'garakda asosan engil atletika turlari bo'lib, ular bilan bir qatorda kurash, suzish, velosport, futbol, xokkey, tennis, konkida uchish va boshqa sport turlari bilan shug'ullanar edilar. Lekin yildan-yilga engil atletika ko'proq o'rin egallab bordi. 1893 yilgacha yugurishdan musobaqa o'tkazilgan bo'lsa, keyin esa yugurib kelib uzunlikka sakrash qo'shiladi, ikki yildan so'ng esa yadro itqitish, balandlikka sakrash, uch xatlab sakrash, g'ov osha yugurish va to'siqlar osha yugurish qo'shildi.

Yana ikki yildan keyin kross va langarcho'p bilan sakrashdan, 1897 yildan boshlab disk uloqtirishdan, bir yildan keyin esa nayza uloqtirishdan musobaqalar o'tkaziladigan bo'ldi va o'tkazildi. Bunda to'garak a'zolarigina emas, balki boshqa sport tashkilotlarining vakillari ham qatnashdilar.

1900 yilga kelib musobaqalar soni orta borishi bilan bir qatorda ba'zi sportchilarni tashabbusi bilan tez orada Moskva, Kiev, Xarkov, Kursk, Riga va boshqa shaharlarda ham engil atletika bilan shug'ullana boshladilar. 1908 yilga kelib birinchi marta mamlakat birinchiligi o'tkazildi bu musobaqada to'garak tashkil bo'lganligini 20 yilligiga bag'ishlangan edi. 1911 yili butun Rossiya engil atletika havaskorlari ittifoqi tuzilib, u Peterburg, Moskva, Kiev, Riga,

Odessa va boshqa shaharlardagi 22 ta engil atletika uyushmalarini birlashtiradi. Rossiyaning engil atletikachilari 1912 yili 1 marta Olimpiya o'yinlariga qatnashib, ularning tayyorgarliklari bo'sh bo'lgani uchun va boshqa sabablari bilan Olimpiya o'yinlarida rus engil atletikachilari ishtiroki muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Shundan keyin rus Olimpiya komiteti tashkil qilinib, har yili bir marta Butunrossiya Olimpiadasi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi. 1913 yil Kievda bo'lib o'tgan birinchi Butunrossiya olimpiadasida engil atletikada sport natijalari sezilarli oshganligi namoyish qilindi. Bu olimpiadada Moskva, Peterburg, Kiev, Riga va boshqa shaharlarning engil atletikachilari qatnashdilar. Ikkinchi Butunrossiya olimpiadasi keyingi yili Rigada bo'lib o'tdi. U erda esa yuqori sport natijalari ko'rsatildi. Revolyutsiyadan keyingi ilgarigi Rossiyada engil atletik sport bilan asosan mulkdor sinfning vakillari shug'ullanar edilar.

Revolutsiyadan ilgari Rossiyada boshqa sport turlari singari engil atletika yomon ahvolda edi. Bu Rossiyaning umuman qoloqligi va Chor hukumatining aholi jismoniy tarbiyasiga e'tiborsizligi natijasida edi.

4. Hozirgi zamon Olimpiya o'yinlari

Hozirgi zamon Olimpiya o'yinlari birinchi marta 1896 yil Afinada bo'lgan edi.

Engil atletika musobaqalarida atigi 12 mamlakat qatnashgan edi. Bu o'yinlarda ko'pchilik atletlarning sport natijalari va mashq bajarish texnikalari past edi.

1912 yilda Stokgolmda, Shvetsiyada bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlari engil atletika taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. O'shanda engil atletikani ko'p turlaridan qator yillardan buyon o'zgaray kelayotgan Jahon va Olimpiya rekordlari yangilangan edi. 1912 yilda engil atletikani rivojlanishi va xalqaro musobaqalar o'tkazishi, rahbarlik qiladigan organ - Xalqaro engil atletika havaskorlari Federatsiyasi NAAF tashkil qilindi. Federatsiyaning maqsadi ustav va xalqaro musobaqalar o'tkazish qoidasini ishlab chiqarishdan iborat edi.

1-Jahon urushidan keyin ko'p mamlakatlarda sport mushkul holatda edim. Shuning uchun ko'p mamlakatlar 1920 yilda o'tkazilgan VII Olimpiya o'yinlarida qatnasha olmadilar.

5. Mustaqil O'zbekistonni Olimpiada o'yinlaridagi ishtiroki

Engil atletika. Atlanta-1996 yil

1. Ramil Ganiev (o'n kurash bo'yicha Osiyo o'yinlari g'olibi, Osiyo rekordchisi).
2. Vladimir Parfyonov (nayza uloqtirish bo'yicha osiyo rekordchisi).
3. Svetlana Munkova (Osiyo o'yinlari g'olibi va 1-Markaziy Osiyo o'yinlari g'olibi, balandlikka sakrash).
4. Viktor Zaytsev (nayza uloqtirish bo'yicha 1-Markaziy Osiyo o'yinlari g'olibi).
5. Evgeniy Petin (uzunlikka sakrash bo'yicha sport ustasi).
6. Anvar Kuchmurodov (100 m. yugurish bo'yicha O'zbekiston va Osiyo chempioni).
7. Sergey Kot (yadro turtish xalqaro turnirlari sovrindori).
8. Vitaliy Xojatelev (molot uloqtirish bo'yicha xalqaro miqyosdagi sport ustasi).
9. Roman Poltoratskiy (disk uloqtirish bo'yicha Markaziy Osiyo o'yinlari g'olibi).
10. Lyudmila Dimiriadi (yugurish bo'yicha sport ustasi).
11. Yuriy Aristov (to'siqlar osha yugurish bo'yicha xalqaro turnirlar sovrindori).
12. Sergey Voynov (nayza uloqtirish bo'yicha o'smirlar o'rtasida jahon chempioni).

Engil atletika. Sidney-2000

1. Andrey Abduvaliev (molot 15 o'rin).
2. Sergey Voynov (nayza uloqtirish, 25-o'rin).
3. Lyubov Perepilova (100 m. yugurish, 11,59 sekundda 27-o'rin, 200 m. yugurish, 28,83 sekund bilan 42-o'rin).
4. Sofya Kabanova (etti kurash bo'yicha 27-o'rin).
5. Erkin Isakov (400 m. to'siqlar osha yugurish, 50,71 sekund natija bilan 31-o'rin).
6. Evgeniy Petin (uch xatlab sakrash, 15 m. 17 sm., 34-o'rin).
7. Roman Poltoratskiy (disk uloqtirish, 47 m. 33 sm. natija bilan 41-o'rin).

8. Vitaliy Xojetelov (molot, 65 m. 60 sm., 42-o`rin).
9. Viktor Ustinov (molot 60 m. 60 sm., 43-o`rin).
10. Rustam Husnutdinov (uzunlikka sakrash 7 m. 24 sm. natija bilan 45-o`rin).
11. Elena Piskunova (400 m. yugurish, 55,4 sekund. 49-o`rin).
12. Oleg Veretnikov (o`n kurash sport turi 1-turda so`ng musobaqadan chiqib ketgan).
13. Estafeta yugurish ayollar (4 x 100 m. ga 45,14 sekund, 22-o`rin).
14. Estafeta yugurish ayollar (4 x 400 m. ga 3 minut. 43,96 sekund, 21-o`rin)
15. Estafeta yugurish erkaklar (4 x 100 m. ga 41,20 sekund, 38-o`rin)

2-MAVZU: O`ZBEKISTON JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA ENGIL ATLETIKA

Reja

1. Engil atletika sport turi to`g`risida tushuncha.
2. Engil atletika mashqlarini klassifikatsiyasi va uni sog`lomlashtirishdagi ahamiyati.
3. O`zbekiston jismoniy tarbiya tizimida engil atletikaning o`rni va ahamiyati. Hozirgi kunda O`zbekistonda engil atletikaning ahvoli.
4. Jismoniy tarbiya fakultetlarida engil atletikaning maqsad va vazifalari.

SAVOLLAR

1. Atletika tushunchasi ma`nosi nima?
2. Baquvvat kishilar deb kimlarni aytiladi?
3. Engil atletika turi sportni qanaqa sifatlarini rivojlanitiradi?
4. Engil atletika qannaqa harakat malakalarini oshiradi?
5. Qanaqa yugurish turlari bor?
6. Qanaqa sakrash turlari bor?
7. Qanaqa uloqtirish turlari bor?
8. O`zbekistonda engil atletika sport turi qachon paydo bo`lgan?
9. O`zbekistonda engil atletika rekordlar jadvali.
10. O`zbekistonda fizkultura texnikumi qachon tashkil etilgan?
11. O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan Namanganlik birinchi murabbiy kim?

TAYANCh IBORALAR

1. Engil atletika
2. Yurish
3. Yugurish
4. Sakrash
5. Uloqtirish
6. Ko`pkurash
7. Stadion
8. Sportchi
9. Murabbiy
10. Stadionda yurish
11. Ko`cha yo`llarida yurish
12. Tabiiy sharoitda yugurish
13. To`siq osha yugurish
14. Yaqin masofaga yugurish
15. O`rta va uzoq masofaga yugurish
16. Estafeta

1.Engil atletika sport turlari to`g`risida tushuncha.

Engil atletika yurish, yugurish sakrash va uloqtirish turidir.

Maxsus fizkultura o`quv yurtlarida va pedagogika institutlarida, jismoniy madaniyat fakultetida esa engil atletika mazkur sport turining nazariyasidan, amaliy ishlardan hamda uni o`qitish metodikasidan iborat darsdir.

Engil atletika shu sohada ilmiy tadqiqotlar o`tkaziladigan fandir.

Yugurish: insonning joydan joyga ko`chishini tabiiy usulidir. Bu jismoniy mashqning ko`proq tarqalgan turi bo`lib juda ko`p sport turlari (futbol, basketbol, qo`l to`pi va boshqalar) tarkibiga kiradi. Yugurishning juda ko`p xillari engil atletika har xil turlarining organik qismi hisoblanadi. Engil atletikada yugurishning engil yugurish, to`siqlar osha yugurish, estafetali yugurish va tabiiy sharoitda yugurish xillari bo`ladi. Yugurishning xillari va masofa uzoqligi va yaqinligiga qarab yaqin masofaga, o`rta masofaga va marafoncha yugurishlar kiradi.

Sakrash: - to`siqlardan o`tishning tabiiy usuli bo`lib, qisqa vaqt ichida asab muskul kuchiga maksimal zo`r berish bilan harakterlidir. Engil atletika, sakrash mashg`ulotlarida sportchilarning o`z tanalarini idora qila bilish, kuchlarini yig`a bilish qobiliyatlari takomillashadi. Kuch, tezlik, chaqqonlik, mardlik orta boradi. Sakrash-oyoq va tana muskullarini kuchaytirish va sakrovchanlikni hosil qilish va eng yaxshi mashqlarda biri bo`lib, faqat engil atletikachilarga emas, sportning boshqa turlariga ham zarurdir.

Engil atletikada sakrash ikki turga bo`linadi.

1. Imkon boricha balandroq sakrash maqsadida vertikal to`siqlardan o`tish-balandlikga sakrash va langarcho`p bilan sakrash.

2. Imkon boricha uzoqqa sakrash maqsadida gorizental to`siqlardan o`tish-uzunlikga sakrash va uch xatlab sakrash.

Sakrash turlari turli joydan va yugurib kelib ijro etiladi.

Uloqtirish: maxsus saryadlarning uzoqlikka irg`itish va uloqtirish mashqlaridir. Bularning natijalari metr va santimetr bilan aniqlanadi. Uloqtirish asab muskul kuchlanishi qisqa vaqt maksimal bo`lishi bilan harakterlidir. Engil atletikada uloqtirishlar ijro usuliga qarab uch turga bo`linadi:

1. Bosh ortidan boshlab uloqtirish (nayza va granata).

2. Aylanib uloqtirish (disk bosqon)

3. Itqitish (yadro)

Uloqtirish usullarining farqi snaryadlarnig shakli va og`irligiga bog`liqdir. Engil ushlash qulay bo`lgan snaryadlarni to`g`ridan yugurib kelib bosh ortidan boshlab uzoqqa uloqtirish mumkin. Og`irroq snaryadlarni aylanib uloqtirish qulayroq. Maxsus tutqich bo`lmagan og`ir snaryad yadroni esa itqitish qulayroq.

Ko`pkurash: yugurish, sakrash va uloqtirishning har xil turlarini o`z ichiga oladi. Ko`pkurash tarkibidagi turlar miqdoriga qarab nomlanadi. Uchkurash, to`rtkurash, beshkurash. oltikurash, sakkizkurash, o`nkurash. Ko`pkurashning asosiy turlari: erkaklar uchun - o`nkurash va ayollar uchun beshkurash va o`spirinlar uchun oltikurash va sakkizkurash. Iusobaqa esa ikki kunda o`tkaziladi.

Engil atletika besh bo`limdan (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish va ko`pkurashdan) iborat bo`lib, ularning har qaysisi ham xilma xil turlarga bo`linadi.

O`zbekistonda engil atletika

Turkiston davlatida engil atletika sport turi sifatida bo`lmagan. Ammo rus armiyasini tarbiyalashda qo`llanilgan. 1910 yillarga kelib, Toshkentda, Farg`onada o`z xohishi bilan ish yurituvchi, sakrovchi, uloqtiruvchi to`garaklar paydo bo`la boshladi.

Ta`til vaqtida Peterburg, Xarkov, Moskva va boshqa shaharlardan mehnat ta`tiliga kelgan studentlar, unga rahbarlik qilar edilar.

Rossiyada tanilgan yuguruvchi Skoblev Lev Lvovich Barxash bilan 1916 yili Marg`ilonga kelib engil atletika yo`laklari, sakrash va uloqtirish sektorlarini qura boshladi. U vaqtlarda juda oz kishi shug`ullanardi.

Oktyabr inqilobidan so'ng engil atletika bilan shug'ullanish uchun katta imkoniyat yaratildi. Turkiston respublikasida xalq, maorif komissariati 1919 yildan boshlab tuzilib, bu komissiyaga musobaqalar tashkil etish, umumiy ta'limni ishlab chiqish va jismoniy tarbiya ishlari bilan shug'ullanish topshirildi.

1922 yili 22 mayda M.Frunze rahbarligida lekret qabul qilinib, unda armiya yoshidagilar va xizmatchilar o'rtasida fizkultura va sport ishlariga "Vsevobich" orqali rahbarlik qilish ko'rsatildi. Bunga katta e'tibor berilib, 1920-1921 yillarda 15 ta "Vsevobich" to'garaklari tashkil qilindi. Bu musobaqada engil atletika, futbol, shaxmat va milliy sport turlaridan o'tkazildi.

1920-1930 yillarga kelib jismoniy tarbiya mutaxassisligidan kadrlarni etishmasligi va bunga ehtiyoj kattaligi ko'rinib qoldi.

1921 yili "Vsevobich", Turkfront boshqarmasi tashkil etildi. Markaziy jismoniy tarbiya soveti qoshida shu yilni o'zida uch oylik kurs ochilib, unda fizkultura o'qituvchisi va fizkultura instruktorlarini tayyorlana boshlandi. 1935 yili Toshkentda fizkultura texnikumi ochildi. Engil atletika bo'yicha birinchi marta 1922 yili rekordlar jadvali barpo etildi. O'sha vaqtda eng taniqli sportchilardan N.Ovsyannikov, P.Taronov va L.Valishevlar yana engil atletikani rivojlantirishda katta ishlar qildilar.

Toshkentda birinchi stadion ochildi. "Pishevik", hozir shuni o'rniga basseyn qurilgan bo'lib, V.S.Mitronov nomi bilan nomlanmoqda.

1924 yili O'zbekiston respublikasi tashkil bo'lganidan so'ng sport otalig'ini komsomol tashkilotlari o'z zimmasiga olgandan so'ng, engil atletika rivojlanishi tezlashdi.

Shahar va qishloqlarda shug'ullanuvchilar soni ko'paya boshladi. 15 iyul 1926 yili Shayxontohur tumanida stadion ishga tushdi. 1927 yili 1-O'zbekiston spartakiadasi, 1928 yili 11-O'zbekiston spartakiadasi bo'lib o'tdi.

1927 yili Toshkentlik armiyachi Nikolay Ovsyannikov 2 ta SSSR rekordini qo'ydi. 110 sG'b, 17 sek. balandlikka sakrashdan 177 sm. bu O'zbekiston sportchilari ichidan birinchi edi. Moskva shahrida o'tgan 1-SSSR spartakiadasida O'zbekiston komandasi 4-o'rinni egalladi.

N.Ovsyannikov 1-o'rin 110 sG'b 16.2, uch hatlab sakrash 2-o'rinni, 13 Muhammad 20 sm, Yu. Dunaev 2-o'rin balandlikga sakrash 1.75 sm, uch hatlab sakrash 3-o'rin, shest bilan sakrashdan va boshqalar.

Ayollar uchun birinchi engil atletika to'garagi 1928 yili Toshkentda tashkil etilgan. 1929 yil 19 sentyabrda 1-marta engil atletika bo'yicha kross o'tkazilgan va bu estafeta 1991 yilgacha har yili o'tkazilib turilgan. (2-Jahon urushi yillaridan tashqari).

Respublikada sport ishlarini rivojlantirishni sport inshootlarini yaxshilab yo'lga qo'yish uchun 1932 yilda qaror qabul qilindi. 1934 yili M. Tocharova nayza uloqtirish bo'yicha SSSR chempioni bo'ldi va SSSR rekordini o'rnatdi. 1934 yildan boshlab O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari orasida o'rtoqlik uchrashuvlari avj oldi. 1-uchrashuv Toshkent shahrida 1934 yil 5-12 sentyabrda bo'ldi. 16 ta erkaklar turidan, 10 turdan o'zbek sportchilari g'olib chiqishdi. Ayollar o'rtasida 7 tur bo'yicha musobaqalashildi. Hamma turlardan O'zbekiston ayollari g'olib chiqishdi.

1936 yilgi O'zbekiston 4-spartakiadasida engil atletika turidan O'zbekistonni 32-rekordi qo'yildi. 1937 yili Toshkentda, Samarqandda, Farg'ona, Buxoro va boshqa shaharlarda birinchi engil atletika maktablari tashkil etildi. 1938 yili SSSR yoshlar birinchiligida O'zbekiston engil atletikachilari ikkinchi o'rinni egalladilar. O'sha paytdagi eng yaxshi sportchilar L.Skatskaya, F.Xasanov, Yu.Shalamitskiy va boshqalar bor edi.

1940 yili A.Kotsareva O'zbekiston engil atletikachilari orasida birinchi SSSR sport masteri bo'ldi. Kop'ya uloqtirish bo'yicha Ulug' Vatan urushi yillari respublikada sport ishlari to'xtab qolmadi. Musobaqalar o'tkazilib turildi.

Yaxshi sportchilar armiyaga hohishlari bilan jo'nashdi, qolganlari esa ishni davom ettirishdi. 1943 yili ikkinchi O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari spartakiadasi bo'lib o'tdi. Olmaota shahrida 1945 yili "Spartak" stadionida O'zbekiston spartakidasi bo'lib o'tdi, unga engil atletika bo'yicha 150 kishi qatnashdi.

1946 yili yana bir necha O'zbekiston rekordi o'zgardi. N.Severyukova (beshkurash) 1954 yilda Farg'ona pedagogika instituti qoshida jismoniy tarbiya mutaxassisligiga studentlar qabul qilindi. Keyinchalik boshqa viloyat va shaharlarda ham ochila boshlandi.

1955 yili Toshkentda fizkultura texnikumi bazasida O'zbekiston Davlat Fizkultura Instituti ochildi. Institut ochilgan yillari studentlarni tarbiyalashda Leningrad Fizkultura Instituti va Moskva Fizkultura Instituti mutaxassislari katta yordam berdilar. NamPIga jismoniy tarbiya mutaxassisligi uchun 1967 yili 25 nafar student olingan. 1971 yil 1-martda fizkultura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar chiqarilgan. Hozirga qadar 1000 ga yaqin talaba bitirib chiqdi. 1950 yillarda eng kuchli sportchi G.Senkin bir necha marta SSSR birinchiliklarida 100 va 400 metrdan yaxshi o'rinlarni egallagan. Ayollardan F.Xasanova, 400, 500, 800, 100, 1500. 1953 yiliga kelib A.Chexonov 800, 1000, Muhammad 1952-57 yillarda, Yu.Krasivnokov eng avvalo kopya uloqtirishda, keyin esa balandlikka sakrashdan va o'ngkurash bo'yicha O'zbekiston rekordini o'rnatdi.

1955-1957 yillarda bo'lib o'tgan SSSR yoshlar spartakiadasida talantli yoshlar ko'zga ko'rina boshlandi. O'zbekistonda Tamara va Irina press Tamara 1955 yili yadro, disk, yadrodan oltin medal olishga sazovor bo'ldi. 1957 yili Irina yadro, beshkurashda 2 o'rinni, Tamara beshkurashda 1-o'rinni egallashdi.

1956 yili 1-spartakiadada SSSR, O'zbekistonlik V.Bold balandlikka sakrashdan 1-o'rinni egalladi. 1956 yili bo'lib o'tgan 16-Melburn Olimpiya o'yinlarida qatnashdi. U ayol birinchi O'zbekiston engil atletikachilari orasida Olimpiya ishtirokchisi edi. 1960 yilda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlarida sovrindor bo'ldi.

1957 yili O.Raxovskiy dunyo spartakiadasida 1-o'rinni uch hatlab sakrash bo'yicha egalladi. 1958 yili SSSR va AQSh o'rtoqlik uchrashuvida O'zbekistonlik O.Raxovskiy dunyo rekordini o'rnatdi. 16 m. 59 sm. natijaga erishdi.

1958 yilda bo'lib o'tgan 2-SSSR spartakiadasida bir necha O'zbekiston sportsmenlari o'zlarini yaxshi natijalarini ko'rsatishdi. Ular orasida I.Monasterskiy, A.Chexnin 800, Yu.Puzonov 110 s.b, 200 s,b natija bilan, Haydarov, O.Raxovskiy uzunlik, uch hatlab sakrash, A.Xolmanskaya yadro bilan shularni misol qilishimiz mumkin.

1960 yillarga kelib engil atletikachilarni tayyorlash ancha yaxshi tomonga o'zgardi. Yaxshi trener, murabbiylar etishib chiqdi. Ular orasida V.Borishev, N.N.Bikov, A.A.Vink, Shalomitskiy, V.Fedosov, Yu.Puzanov, A.Borisov, Yu.Krasilnikov, Arzumanov va boshqalar.

1960 yildan boshlab O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan trener unvoni berila boshlandi.

Birinchi unvonga sazovor bo'lganlar: Barishev, Bikov, Kalerov va Toshkentdan Vladimir Pantedemonovich, Bessekkernix, Samarqand va Namanganlik Institut kafedra mudiri Zokirov Yu.I lardir.

3-sobiq SSSR spartakiadasi Moskva shahrida bo'ldi. Bu musobaqada Namangan viloyatidan 4 sportchi qatnashdi. Sovlev.Yu. 100 Muhammad, Smirnova L.S. beshkurash, Usmanov Habibullo o'ngkurash va Bikova Galya kopyo uolqtirish bo'yicha. Quyidagi sportchilar yaxshi natija ko'rsatdilar: V.Bolod sakrash, Chezvilin shest, Sitnikov shest, Machuli uzunlik, Nekrashevich kopyo, Nerovnaya 800 Muhammad, Podrov kopyo, E.Skorin 200 m, E.Andris molod.

1962 yili O'zbekiston engil atletikachilarini tarixida birinchi marta Osiyo o'yinlari oldidan Indoneziya davlatini Jakarta shahrida o'rtoqlik uchrashuvlari bo'lib o'tdi. Bu tarixda O'zbek sportchilarining chet mamlakatlar bilan birinchi uchrashuvi bo'ldi. Bunda O'zbekiston sportchilari birinchi o'rinni egalladilar. Komandada Namangandan Usmanov Xabibullo, o'ngkurash bo'yicha respublikamiz sport sharafini himoya qilib birinchi o'rinni egalladi. 1960-1966 yillar O'zbekiston engil atletikachilarining o'sish yillari desak hato qilmasak kerak. Nimaga deganda ko'p o'zbek engil atletikachilarini SSSR terma komanda a'zosi hisoblanar edi. Yana shuni misol qilib aytishimiz kerakki, Namanganlik engil atletikachi Bikova dunyo miqyosidagi sport masteri unvonini oldi. 1969 yili O'zbekiston tarixida ikkinchi dunyo miqyosida sport masteri natijasiga erishdi. Balandlik 2 m 15 sm, Kutanin V., milliy o'zbek yigitlaridan Ashur Normurodov 1967 yili SSSR chempioni bo'ldi. 3 km. 200 m. s,b bilan

yugurishdan 1967 yili Leninake shahrida ikkinchi O'zbekiston sportchisi dunyo rekordini o'rnatdi 26,7 natija bilan.

1965 yilda Hindiston bilan 1971 yili Tunis bilan o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazildi. O'zbekiston komandasi a'zolari yaxshi natijalar bilan g'olib chiqdilar. 1966 yili engil atletika meneji qurilib ishga tushdi. 1972 yildan boshlab yaxshi sportchi, yaxshi trenerlar e'lon qilinib va uni yakuniy har yili o'tkaziladigan bo'ldi. Bu yanada engil atletikani rivojlantirishga yaxshi ta'sir ko'rsata boshladi.

1971 yili Valentina Chuyakova balandlikka sakrash bo'yicha SSSR rekordini o'rnatdi. Uni trenerlari Barishev va Kunyamin G. lar edi. 1970 va 1973 yillarda o'tkazilgan Evropa birinchiligida fahrli o'rnlarni egalladi. 1970 yilga kelib O'zbekistonda talantli sportchilar etishib chiqdi. Svetlana O'lmasova, Zamira Axtyanova ko'p marta SSSR chempioni bo'lib, dunyo kubogi o'tkazilgan musobaqada birinchi o'rinni egalladilar va ikki marta Evropa chempioni bo'ldilar.

3000 m, 1500 m, 800 m masofalardan 1987 yilda yakka sportchi dunyo miqyosida master nomzodini oldilar. Trener Sayfulin boshchiligida 1980 Moskva shahrida o'tkazilgan Olimpiada o'yinlarida O'zbekistonlik sportchilardan Aleksandr Xarlov 40 m., Anatoliy Dutov 3000 m., yaxshi natija bilan SSSR rekordini yangiladilar. Tatyana Biryulina kopya turidan dunyo rekordini o'rnatdi 70.08 natija bilan.

1985 yili Evropa kubogi uchun Moskva shahrida o'tkazilgan musobaqada engil atletika bo'yicha E.Barbashina, Z.Zaytseva, S.Usov fahrli o'rinni egallashdi. Elvira Barbashina 1-o'rinni egalladi- 200 m natija bilan, Zamira Antonova 2-o'rinni egalladi.

1983-1987 yillarda R.Gataulin shest bilan sakrash bo'yicha SSSR va dunyo chempioni bo'ldi. O'zbekiston rekordini bior necha marotaba o'zgartirdi, 5 m 90 natija bilan ko'rsatishi bilan. 1987 yili engil atletika qishki chempionatida yaxshi qatnashdilar. Umumkomanda hisobida V o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldilar.

1987 yili o'tkazilgan SSSR chempionatida engil atletikachilar 25 ta faxrli o'rinni oldilar. 10 ta 1-o'rin, 8 ta 2- o'rin, 1 ta 3- o'rnlarga erishildi.

1988 yilda bo'lgan Olimpiya o'yinlarida 10 ta engil atletikachi O'zbekistondan komanda sostaviga kiritildi. Ular: Yu.Gataulin, S.Usov, A.Xarlov, M.Shmanina, V.Chernikov, A.Berexonov, V.Rejsikov, V.Zaytsov, R.G'anievlaridir.

O'zbekistonda engil atletika rivojiga o'z xissasini qo'shgan mutaxassislar: L.L.Balxash, G.M.Bernardskiy, P.T.Taranov, Yu.Minaev, D.Kopitsev, P.V.Kravchenko, A.V.Borisov, A.M.Bertsovskiy, V.Barishev, E.Andreev, Krasilnikovlarni misol qilishimiz mumkin.

1920 yildan boshlab SSSR chempionati o'tkazilgan. 1- O'zbekiston sportchilaridan chempionat g'olibi bo'lganlardan armeets Nikolaev Ovsennikov (1923 yildan "o'n kurash"dan SSSR chepionatida 1(o'rinni olgan)ni aytish mumkin.

Umuman SSSR chempionatida O'zbekiston sportchilari jami 144 ta medal 37 ta oltin, 48 ta kumush, 59 ta bronza oldilar.

O'zbekiston sportchilari orasida eng ko'p medal olganlardan 1-o'rinda Svetlana O'lmasova (17 ta medal, ya'ni 11 ta oltin, 3 ta kumush va 3 ta bronza), 2-o'rinda Zamira Zaytseva (9 ta medal bilan, ya'ni 2 ta oltin).

O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikasi spartakiadasu

1934 yildan to 1957 yilgacha O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari spartakiadasu programma bo'lib hisoblanadi.

Bu 5 ta respublikalarda bo'lib o'tdi. Toshkentda 3 marta bo'ldi. Bu uchrashuvda ko'proq o'zbek sportchilari 8 marta qatnashdilar. Eng yaxshi o'rin egallaganlardan L.Skatskaya, E.Putsillo, A.Borisov, A.Kireeva, S.Popov, Yu.Sholomitskiy va Yu.Finke va boshqalar Olimpiya o'yinlarida birinchi marta o'zbek sportchisi 1952 yilda Xelsinkida Popov qatnashib sport ustasi me'yorini bajargan. Bar'erlar osha yugurishdan 1956 yil Melburn 1964 yil AQSh Los-Anjeles shahrida bo'lgan o'yinlar SSSR jamoasi qatnashdi. 1980 yili Moskvada bo'lgan Olimpiada

o'yinlarida uchta O'zbekiston engil atletikachilardan qatnashgan. T.Borodyun, N.Xarlov, A.Dimov.

Sobiq SSSR spartakiadalarida

Sobiq SSSR birinchi xalqlar spartakiadasida 15 ta respublika va Moskva, Leningad shaharlarida 462 ta sportchilar qatnashgan. Unda 1462 kishi qatnashgan bo'lib, o'tgan spartakiadalarda O'zbekiston engil atletikachilari 1956, 1983 va 1986 yillarda yaxshi natijalar ko'rsatdilar. Jami 15 ta medal olishgan. 4 ta oltin, 3 ta kumush, 8 ta bronza medallariga sazovor bo'lishgan.

Spartakiadalarda eng ko'p medal olgan o'zbek sportchilaridan Valentina Bold 3 ta, ya'ni 1 ta oltin, 2 ta bronza medalini olgan.

Evropa kubogida

1-marta O'zbekiston sportchilari 1958 yili Oleg Raxovskiy uch xatlab sakrashdan dunyo rekordini o'rnatib, ikkinchi o'rinni egalladi.

3000 m yugurishdan 1978 yil Pragada, 1982 yil Afinada, Svetlana O'lmasova 1-o'rinni, 1500 metrda yugurishdan Zamira Zaytseva 1-o'rinni egallashdi. 1982 yil Aleksandr Xarlov 400 m. s,b dan bronza medalini oldi.

Jahon chempionati kubogi

Engil atletika tarixida birinchi marta Jahon chempionati 1983 yil 7-14 avgustda Finlyandiyaning Xelsinki shahrida Olimpiada stadionida bo'lib o'tdi. Bunga 157 ta davlat qatnashdi. SSSR terma komandasi tarkibida 4 ta O'zbekiston sportchilari ham bor edi. 3 ta sportchi medal bilan qaytdilar. Sergey Lovachev oltin medal sohibi, 4 x 4,0 m natija, Zamira Zaytsova kumush 1500 va Aleksandr Xarlov bronza 400 m. s,b, Svetlana O'lmasova 3000 m bornza, Tatyana Kazanxina 8-o'rin O'lmasovadan 0,42 sek. orqada qoldi.

2- chempionat ya'ni jahon chempionati 1987 yil 29 avgustdan 6 sentyabrgacha Rimda Olimpiada stadionida bo'lib o'tdi. O'zbekiston davlat fizkultura instituti talabasi shest bilan sakrashda 5 m 80 sm sakrab bronza medali olishga sazovor bo'ldi. 1981 yili bo'lib o'tgan chempionat kross bo'yicha bo'lib, u doimiy kross bo'yicha bo'lib kelgan.

Svetlana O'lmasova olti marotaba 1980 yildan 1987 yilgacha bo'lgan musobaqada qatnashib «dunyo chempioni» bo'ldi.

Erkaklar orasida O'zbekistonlik Abdullajon Ibragimov 1979 yili knior gruppasida Madridda qatnashgan. 1985 yil 9-jahon kubogida Kanberra (Avstraliya) ikkinchi o'rin, O'zbekistonlik Sergey Usov yugurish bo'yicha 110 m s,b, Elvira Barbashina estafeta 4 x 100 natijalarga erishishdi.

1985 yil jahon chempionatida marafon yugurishdan birinchi o'rinni Nadya Manova qo'lga kiritgan.

Jismoniy tarbiya fakultetlarida engil atletikani maqsad va vazifalari

Pedagogika va fizkultura institutlari o'quv rejalarida yuqori malakali mutaxassislarni tayorlash uchun 4 xil sikldan foydalaniladi.

O'quv sikl predmetlari aniq ko'rsatilmagan: ijtimoiy, umumiy, nazariy, medik-biologik, sport pedagogik fanlaridir.

O'quv fanlarini o'qitish jarayonida ayniqsa, engil atletika darslarida bo'lajak mutaxassislarni jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bilan qurollantirish kerak bo'ladi. Shu munosabat bilan quyidagilarni bilish zarur.

- sportchilarni tayyorlashda ularni g'oyaviy-siyosiy, ahloqiy-estetik jihatdan tarbiyalash forma va metodlari umumpedagogik ishlarni asosi hisoblanadi.

Yuqoridan kelib chiqib mutaxassis bilishi kerak bo'lgan narsalar quyidagilardan iborat:

- engil atletika bo'yicha kadrlarni tayyorlashni planlashtirish va uni amalga oshirish, kuchlilik, chaqqonlik, chidamlilik, tezkorlik va epchillik kabi sifatlarni egallashdir;

- turli iqlim sharoitlarida har xil zallar va sport maydonlarida yuqori saviyada o`quv-trenirovka mashqlarini o`tkazish;
- engil atletika mashqlari bo`yicha mashqlarni namunali qilib ko`rsatishni egallash, shuningdek, normativlarni topshirish va tayyorlash jarayonida gimnastika yozgi va qishki sport o`yinlari. Og`ir atletika kabi turlardan keng foydalanish mumkin;
- engil atletika sportining muhim masalalariga doir ilmiy ishlar olib borish;
- har xil musobaqalar, ommaviy sport sog`lomashtirish tadbirlarini tayyorlash va o`tkazishda tashkilotchilik, sudyalik va metodik ishlarni amalga oshirish;
- shikastlinishni oldini olish, birinchi yordam ko`rsatish, sport gigienasi va massaj o`tkazishda egallangan bilimlardan amaliy foydalanish.

Engil atletika kurashining nazariy va amaliy bo`limlari birgalikda jismoniy tarbiya tizimini turli zvenolarida ishlashga layoqatli haqiqiy mutaxassislar tayyorlashni amalga oshiradi.

3-MAVZU: ENGIL ATLETIKA MASHQLARINI TEXNIKASI. SPORTChA YuRISH VA YuGURISH NING ASOSIY TEXNIKASI

Reja

1. Yurish va yugurish odamni siljishi uchun tabiiy usul ekanligi, sportcha yurish siljishni qaytarilib bajariladigan bir harakati, juft qadamdagi siklni bajarilishidagi harakat fazasi yakka mashqlar yurishda ichki va tashqi kuchlar ta'siri.
2. Yaqin masofaga yugurish siklida harakat fazasi va tashqi kuchlarni bir-biriga bog`liq ta'sir etishi asosiy fazasida depsinish, orqa oyoq bilan depsinish, paytida yuguruvchi oyoqning karakteri va oldingi oyoqni qo`ygandagi vertikal holati. Yugurish paytidagi asosiy og`irlik markazi orqa keyin egilishi va to`g`ri vertikal holatda bo`lishi.
3. Nafas olish qadamlar orasini uzunligi va siljishdagi tezligi

SAVOLLAR

1. Sportcha yurishda qo`l va oyoqni harakati.
2. Sportcha yurishda tos va elkaning harakati.
3. Yugurishda siklik harakatlar.
4. Yugurishning turlari

TAYANCh IBORALAR

1. Tsiklik harakat
2. Qo`sh qadam
3. Yakka tayanch
4. Havodagi harakatlar

Yurish texnikasi asoslari

Yurish va yugurish inson birinchi joydan ikkinchi joyga ko`chishining tabiiy usuli.

Bu uning asosiy qadami bo`lib vositasiz odam oyoq muskullaridan foydalanib, erdan depsinib siljiydi. Yurish va yugurish vaqtida qadamlar va ularga bog`liq bo`lgan qo`l va gavda harakatlari to`xtovsiz bir tartibda ko`p marta takrorlanadi. Buni siklik harakat deyiladi. Masalan: o`ng oyoqni bir qadam, chap oyoqni bir qadam qo`yilishi oyoq harakatining har bir davri ikki fazadan iborat. Tayanch davri oldinda tayanch fazasidan va orqada tayanch fazasidan iborat. Shunday qilib oyoq harakatlari siklida fazalar tartibi quyidagichadir:

Oldingi qo`yish payti:

Oldingi tayanch fazasi.

Tayanch vertikal payti

Keyingi tayanch fazasi (turish). Tayanch davri.

Oyoqni erdan uzish payti:

Keyingi qadam fazasi.

Silkinch oyoqning vertikal payti.

1. Oldingi qadam fazasi (o`tkazish davri)

Oyoqni qo`yish payti.

Tayanch davrining boshida tana massasi tayanchdan orqada bo`ladi, keyin esa olg`a tomon kuchayadi. Yurish paytida muskullar ishi harakatga keltiruvchi kuch manbai bo`lib xizmat qiladi.

Asosiy rol inson bilan tayanchning o`zaro ta'siri (tayanch reaksiyasi) natijasida hosil bo`ladigan tashqi kuchlar o`ynaydi. Bu kuchlar inson tanasining tayanchga ko`rsatayotgan ta'siriga javoban hosil bo`ladi. ular miqdor jihatidan erga ko`rsatilayotgan ta'sir kuchiga teng. Yo`nalish jihatidan esa ta'sir kuchiga nisbatan qarama-qarshidir.

Tayanchning birinchi fazasi oyoqni qo`yish bilan boshlanib, vertikal paytda tamom bo`ladi.

Bu fazada yurib ketayotgan kishining gavdasi gavda og`irligi chizig`idan oldinda erga tayanadi. Gavda oldinga va pastga tayanayotganda tayanch reaksiyasi orqaga va yuqoriga yo`nalgan bo`ladi. og`irlik ta'sirida gavdaning pastga tushishi asta-sekin yo`qoladi. Shu bilan

gavdaning oldinga siljishi ham yo`qoladi. Oldingi tayanch fazasidagi sekinlashish to`xtagandan keyin, shu oyoqning o`zining keyingi fazasida turishi bo`ladi. natijada gavdaning asosiy massasi, qo`lg`almay turgan tovonga nisbatan siljib, tayanch ustidan olg`a tomon o`ta boradi. Oyoq keyingi fazasida erdan deysinib bo`lganidan keyin gavda kinetik energiya hisobiga inertsiya bilan olg`a tomon harakat qilishda davom etadi – bu passiv siljishdir.

Oyoqni orqadan oldinga harakatlantirib, erga qo`yish paytida oldingi tayanchdagi tayanch reaksiyasining to`xtatish ta'siri oshadi. Agarda oyoqni tanaga nisbatan orqaga sidirayotganday faol harakat bilan qo`yilsa, tayanch reaksiyasining to`xtatish ta'siri nisbatan kam bo`ladi. bu ta'sirni batamom yo`qotib bo`lmaydi., chunki oldinga siljiyotgan jism erga tekkkanda har doim harakat yo`nalishiga qarama-qarshi bo`lgan qarshilikka uchraydi.

Lekin sportchi tayanch oyog`ining tos-son bo`g`imidan oyoqni yozadigan muskullarini faol qisqartirsa, oyoqni er bilan yaxshi tutashtirsa tayanchning sekinlashtirish tayanchning bir qadar kamaytira oladi deb hisoblaydilar. Shunday qilib, oyoq bir xil burchak hosil qilib qo`yilganda ham tayanch reaksiyasi burchagiga binobarin tayanch reaksiyasining sekinlashtirish ta'siri ham har xil bo`lishi mumkin.

Sportcha yurishdagi oldingi tayanch vaqtida oyoqning tizza bo`g`ini to`g`ri bo`ladi. Shuning uchun tayanchning eng boshida to oyoq tagi erga tekkuncha oyoq orqa bukuvchilarining yo`l berish hisobiga amortizatsiya qisman sodir bo`ladi. asosan esa tayanch oyog`ining tos-son bo`g`imidan orqa tortuvchi muskullarning yo`l beri shishi vaqtida tos suyagi pastiga tushishi hisobiga amortizatsiya bo`ladi. sportcha yurishdagi deysinib fazasidagi tizza bo`g`ini muskullari dinamik ish bajarmaydi. Buning evaziga tos soni va to`piq bo`g`imlari muskullarining roli oshadi. Oyoq erdan uzilgandan keyingi qadam fazasi boshlanib, u oyoq vertikal momentiga davom etadi.

Silkinch oyoq tayanchi ustidan oldinga o`tkaziladi. Natijada narigi oyoqning tayanchga bosimi kuchayadi, tayanch reaksiyasi ortib, uning oldinga qiyaligi burchagi kamayadi. Vertikal holatdan keyin oldinga qadam fazasi boshlanib silkinch oyoqning oldinga harakati davom etadi va u erga tushadi. Odatdagi yurish vaqtida qo`llarning harakati ma'lum darajada passivdir. Tez yurganda, ayniqsa sportcha yurish vaqtida qo`lning faol harakati muskullardan anchagina ish talab qiladi. Qo`llarni tezroq harakatlantirish kesishma inervatsiyasi natijasida oyoqlar harakatini tezlashtiradi, qadamlar jadalligini ortishiga olib keladi.

Yugurish texnikasi asoslari

Hamma yurish turlarining texnikasi asoslari birdir. Yurishdagidek yugurishda ham harakat sikli ikki qadamdan iborat bo`ladi. Lekin yurish har bir harakat siklida ikkita uchish davri bo`lishi bilan yurishdan farq qiladi. Yugurishda harakat kengligi va tezligi kattaroq bo`ladi. Bu yugurish tezligiga bog`liq. Qisqa masofalarga yugurishda harakat kengligi va tezligi egsh katta o`at uzoq masofalarda esa eng kichik bo`ladi.

Yugurishda ham yurishdagidek, qo`l-oyoqlar bir-biriga moslashib harakat qiladi. Kesishli koordinatsiya elka kamari bilan tosning qarama-qarshi harakatlarini qAdami kengaytirilishiga yordam beradiyu tayanch davrida tosning pasayishi deysinib moyilligini yaxshilaydi va muskullar yaxshi bo`shashganidan dalolat beradi. Harakatning bir sikli (qo`sh qadam) bir chapu, ikkinchi chap esa bu oyoqqa tayanishdan, ya'ni ikkita yakka tayanch davridan hamda ikkita uchish fazasidan iborat bo`ladi. har bir oyoqning harakati xuddi yurishdagi fazalardan iborat: tayanch paytidagi oldingi tayanch va keyingi tayanch fazalari o`tkazish paytida esa keyingi qAdam fazasi va oldingi qAdam fazasi: oyoqni erga qo`yish va erdan uzish momentlari. Shuningdek, vertikal momentlari bu fazalarni qismlarga bo`linadi.

Tayanch davri davomida tananing og`irlik markazi muttasil, oldinga siljib borib amortizatsiyadan keyin tayanchidan oldinga tomon deysinib yordam beradi. Muskullarni kuchliroq ishlashi natijasida qo`l va oyoqlarni hamma harakatlari yurishdagiga nisbatan kattaroq amplitudada bajariladi. Yurishdagi tananing vertikal bo`ylab siljish amplitudasi yurishdagidan ancha ortiq. Erga bo`lgan bosimni ortishi natijasida tayanch reaksiyalari ham oshadi. Yugurish tezligi ortishi bilan bu reaksiya ham orta beradi.

Tayanch reaksiyasini yo`nalishini belgilovchi depsinish burchagi yugurish tezligiga qarab o`zgaradi. Yugurish tezligi orta borishi bilan oldinga tayanch fazasidan tayanch reaksiyasi ham oshadi. Uning miqdori va yo`nalishi qanday bo`lishi oyoqning erga qo`ygandan keyingi amortizatsiyaga bog`liq. Tayanch reaksiyasining tormoz kuchini pasaytirish uchun uning gorizont talashkil etuvchisini kamaytirish kerak. Buning asosan ikki yo`li bor. Biri oldingi tayanch vaqtida muskullar yo`l berish ishini bajarayotganda, ularning cho`zilishi hisobiga hosil bo`ladigan amortizatsiya. Ikkinchisi erga tushish burchagini oshirish, oyoqi u.o.mning yo`lakdagi proektsiyasiga yaqinroq qo`yish, erga tushish burchagini oshiradi, tormoz kuchini ko`paytiradi va kuchning ta'sir vaqtini qisqartiradi. Buning uchun oyoqni oldindan orqaga faol sidiruvchi harakat erga tushiriladi. Lekin bunda ham tormoz kuchi to`liq yo`qolmaydi. Yuguruvchining vazifasi faqat uni minimal darajaga keltirishdir.

Past startdan keyingi birinchi qadamlarda tana oldinga ko`proq egilganligi sababli oyoq u.o.m proektsiyasidan orqaroqqa qo`yiladi. Yugurishning shu paytdagina erga tushish momentidan gorizont tal tormoz kuchi bo`lmasligi mumkin. yugurishda oldinga tayanch vaqtidagi reaksiya og`irlik kuchi ta'siri ostida tananing yuqori nuqtasida boshlangan pasayish davom etishiga to`squinlik qiladi. Bu fazada oldinga intiluvchi harakat tezligi pasayadi, tayanch oyoq muskullarining yo`l beri shishi (asosan tizza bo`g`imidagi oyoq yozuvchi muskullari) gavdaning pasayish tezligini kamaytiradi.

Depsinish ishning asosiy fazasi bo`lib, har qadamdagi oldingi tayanch tormozidan keyin tezlikni oshiradi. Depsinish vaqtida tos-sondagi tizzadagi yozuvchi muskullarning enguvchi ishi qanchalik ko`p bo`lsa, yugurish tezligi hg`shuncha yuqori bo`ladi. depsinish muddati kamaysa, muskullar ayniqsa ko`proq taranglashadi.

4-MAVZU: SAKRASHNI ASOSIY TEXNIKASI

Reja

1. Sakrashni har xil to`siqlardan o`tishni eng yaxshi usullardan biri ekanligi.
2. Sakrashni fazalari: yugurish, depsinish, uchish, erga tushishi.
3. Har bir fazani bajarish usullari va vazifasi.
4. Depsinish sakrashni asosiy fazasi ekanligi.

SAVOLLAR

1. Sakrash qanday hosil bo`ladi?
2. Qaysi sakrash turida qo`shma tayanch turadi?
3. Balandlikka sakrashda oxirgi qadamlar ucharadimi yoki yo`qmi?
4. Uzunlikka sakrashni oxirgi qadamlari qanday bajariladi?
5. Yugurish tezligi qanaqa bo`ladi?
6. Vertikal tezlik qanday hosil bo`ladi?
7. Depsinishda UOM qanaqa holatda bo`lishi muhim rol o`ynaydi?
8. Uzunlikka sakrash uzoqligi nimaga bog`liq bo`ladi?
9. Uzunlikka sakrash tezligi qanday bo`lishi kerak?
10. Uzunlikka sakrash uchun necha metr masofadan yugurib kelish kerak, balandlikkachi?

TAYANCh IBORALAR

1. Depsinish
2. Uchish
3. Erga tushish
4. Depsinish tezligi
5. Gorizont tal tezlik
6. Vertikal tezlik
7. Sapchish

8. Usul va usullar
9. Sakrash fazalari
10. Erga tushish
11. Fazani bajarish usullari
12. Fazani bajarish vazifalari

1. Sakrashni har xil to`siqlardan o`tishni eng yaxshi usullardan biri ekanligi

Engil atletika sakrash, yugurib kelib erdan depsinish natijasida hosil bo`lgani uchun, ya'ni tayanchsiz faza vaqti uzoqligi bilan karakterlanadi.

Sakrash turiga qarab u.o. uchish fazasida ma'lum traektoriya bo`ylab harakatlanadi. Uch hatlab sakrashning ayrim xususiyatlari bo`ladi. Ko`chma tayanch bilan bajariladigan langarcho`p bilan sakrash, qolgan sakrashlardan yana ham ko`proq farq qiladi. Bu sakrashning birinchi qismi tayanchli, ikkinchisi esa tayanchsiz sakrashda yaxshi natija ko`rsatish, birinchi navbatda sakrovchi gavdasining boshlang`ich uchish tezligi bilan belgilanadi. Bunda sakrovchi sakrash balandligi va uzunligini oshira bilishga effektiv vosita bo`ladigan harakatlar muhim rol o`ynaydi. Sakrashni quyidagi fazalarga ajratish mumkin:

Yugurib kelib depsinishga tayyorlanish

Depsinish oyoqni depsinish joyiga qo`ygandan boshlab depsinish tugashiga qadar

Uchish depsinuvchi oyoq tayanchdan uzilgan paytdan toki erga tegishga qadar

Erga tushish erga tekkan paytdan gavda harakati to`liq to`xtaguncha.

Yugurib kelib depsinishga tayyorlanish sakrovchining yugurish boshlanishidan oldingi dastlabki holati har doim bir xil bo`lishi kerak. Bu holat umuman yugurishdagi startga turishga o`xshab ketadi. Yugurib kelishda tezlikni tobora oshirib borib oxirgi qadamlarda eng yuqori tezlikka erishiladi. Yugurib kelish, balandlikka sakrashdan boshqasi bir xil bo`ladi. yugurib kelishning oxirgi uch-to`rt qadamning kengligi nisbatida va ularning bajarish texnikasida sakrashning har bir turini ayrim o`z xususiyatlari bor. Yugurib kelishda gorizontol tezlik hosil qilinadi. Bu tezlik depsinish paytida hosil bo`lgan vertikal tezlik bilan qo`shilib tananing boshlang`ich ko`tarilishi tezligini hosil qiladi. Bu esa uchish paytidagi tananing inertsiya bilan va og`irlik kuchi ta'sirida siljishga imkoniyat yaratadi.

Yugurib kelish tezligi bilan depsinish tezligi o`zaro bog`liqdir. Yugurib kelishning oxirgi qadamlari depsinishga o`tadi. Shuning uchun oxirgi qadamlar qanchalik tez bo`lsa, depsinish ham nisbatan shuncha tez bo`ladi.

Depsinish burchagi kamchilik katta bo`lishi kerak bo`lsa, oyoq ham shuncha ooldinroq qo`yiladi va tayanch nuqtasidan sakrovchi gavadasi u.o.m.ning proektsiyasiga masofa ham ko`p bo`ladi. bu masofa ortgan sari gorizontol tezlikning vertikal tezlikka o`tish yo`li o`rta bo`ladi.

2. Sakrashni fazalari: yugurish, depsinish, uchish, erga tushishi

«Depsinish» joyiga qo`yilayotgan paytdan qariyb tik oyoq bukiladi. Shu vaqtning o`zida tosson bo`g`ininiham bukiladi. Umurtqa pog`onasi ham ozroq bukilishi mumkin. Bunda sakrovchining u.o.m. ko`tariladi. Sakrashning u.o.m. eng pastki holatidan eng yuqori holatiga etkuncha mushaklarning ishi natijasida tana massasi depsinish fazasidan tezlik bilan siljish boshlaydi. Bu bilan vertikal tezlik hosil bo`ladi.

Sakrashdagi eng asosiy faktorlardan biri iroda kuchi, markaziy nerv sistemasining faoliyati, nerv muskul apparatining boshqarish odam bo`lib qolgandir. Xatto joyida turib oldinga sakraganidan depsinish fazasida depsinuvchi va silkinuvchi oyog`i bilan faolroq harakat qilishga intilishi kerak. Oyoq silkishning ahamiyati biomexanika jihatidagina emas, balki psixologik nuqtai nazaridan ham kattadir.

Depsinish oxirida tananing UOM mumkin qadar yuqori ko`tarilishi muhimdir. Depsinish tuygullanish paytida oyoq bilan gavadasini to`la to`g`rilanishi elka bilan qo`llar ko`tarilishi, shuningdek, silkinuvchi oyoq yuqori holatda bo`lishi tananing UOM uchish oldidan eng yuqori ko`tarilishiga sabab bo`ladi. depsinish burchagi depsinish vaqtida tana UOM tayanchiga nisbatan

ekaniga ancha bog`liq. Lekin tananing UOM proektsiyasi tayanch sathidan qancha nari chiqarilsa, depsinish shuncha o`tkirroq burchak qosil qilib sodir bo`ladi.

Uchish

Depsinishdan keyin sakrovchi erdan ajrab, tananing UOM ma'lum traektoriya bo`ylab uchadi. Bu traektoriya uchib chiqish burchagiga, boshlang`ich tezlikka va havoning qarshiligiga bog`liqdir. Uchib chiqish burchagi yakuniy tezlik yo`nalishi bilan gorizont o`rtasida hosil bo`ladi. Bu burchak depsinish oxirida sakrovchining gorizont va ko`taruvchi tezligi bir-biriga qanday nisbatda ekaniga bog`liq. O`rtacha o`sib chiqish burchagi 60-60 gradusga sakrovchi UOM uchishning birinchi yarmida tekis sekinlashib ko`tariladi. Ikkinchi yarmida tekis tezlanib tusha boshlaydi.

Sakrovchi UOMning ko`tarila boshlash nuqtasi uning erga tushish masofasi uning yuqoriga ko`tarilishi balandligidan ko`proq bo`ladi. shuning uchun traektoriyaning pasayish qismi tezroq bo`ladi. sakrash uzoqligi boshlang`ich tezlik bilan uchib chiqish burchagiga bog`liq.

Erga tushish

Sakrashning turlaridagi qo`nish paytida uchish tezligi tos-son, tezda to`piq bo`g`imlarni buki shva mashqlar tarangligini oshirish bilan kamaytiriladi. Yozuvchi muskullar UOM harakati nolga teng bo`lganicha yo`l beradigan ish bajarib turadi. Er bilan kesishgandan so`ng UOM harakati oyoq tagining bo`lishi hisobiga kamayadi.

Qo`nish paytida zo`r kelishi yumshatishda amortizatsiya masofasini, ya'ni erga birinchi bor tekkan paytdan to`harakat to`la to`xtaguncha UOM bosib o`tgan masofaning uzunligi katta rol o`ynaydi. Bu masofa qancha qisqa bo`lsa, harakat shuncha tez to`xtaydi.

3. Har bir fazani bajarish usullari va vazifalari

Depsinish sakrashning asosiy vazifasi ekanligi. Sakrashning barcha turlarida yugurib kelishda tezlikni oshirib borib, oxirgi qadamlarda eng yuqori tezlikka erishiladi. Yugurib kelishdagi qadamlar harakatini strukturasi asosan qisqa masofaga tezlanishi bilan yugurishda qanday bo`lsa shunday bo`ladi. yugurib kelish oxirgi uch-to`rt qadamini kenglik nisbatida va ularni bajarishi texnikasida sakrashni har bir turining ayrim o`z xususiyatlari bor. Yugurib kelishda gorizont tezlik hosil qilinadi. Bu tezlik depsinish paytida hosil bo`lgan vertikal tezlik bilan qo`shilib tananing boshlang`ich ko`tarilish tezligini hosil qiladi. Bu esa uchish paytida tananing inertsiya bilan va og`irlik kuchi ta'sirida siljishiga imkon beradi. Yugurib kelish tezligi bilan depsinish tezligi o`zaro bog`liqdir. Yugurib kelishning oxirgi qadamlari depsinishga o`tadi. Shuning uchun oxirgi qadamlar qanchalik tez bo`lsa depsinish ham nisbatan shunchalik tez bo`ladi. Yugurib kelish sakrashdagi depsinish fazasida depsinuvchi va silkinuvchi oyoqlar juda katta ish bajaradilar. Lekin, sakrovchi silkinuvchi oyog`i bilan faolroq harakat qilishga intilishi kerak. Oyoq intilishining ahamiyati biomexanika harakatidagina emas balki psixologiya nuqtai nazaridan ham kattadir. Sakrovchi oyoqni mumkin qadar tez siltashga intilib depsinuvchi oyoqning tezroq to`g`rilanishiga ta'sir qiladi va foydaliroq depsinadi.

4. Depsinish sakrashning asosiy fazasi ekanligi

Depsinishni oxirida UOM mumkin qadar yuqori ko`tarilishi muhimdir. Depsinish tugallanishi paytida oyoq bilan gavdaning to`la to`g`rilanishi, elka bilan qo`llar ko`tarilish, shuningdek, silkinuvchi oyoq yuqori holatda bo`lishi tananing UOM uchish oldidagi eng yuqoriga ko`tarilishiga sabab bo`ladi. bunday holda tananing uchishini ancha yuqoridan boshlanadi.

Depsinish har doim ufq nisbatan ma'lumbir chap hosil qilib yo`nalgan bo`ladi. Depsinish burchagini ko`pincha depsinishni yakunlovchi paytida, depsinuvchi oyoqning og`ish burchagi bilan aniqlanadi. Depsinish burchagi depsinish vaqtida tana UOM tayanchga nisbatan qanday holatda ekaniga bog`liq.

Uchish depsinishdan keyin sakrovchi yordam ajrab tananing UOM ma'lum traektoriya bilan uchadi. Bu traektoriya uchib chiqish burchagiga, boshlanig`ch tezlikka va havoning qarshiligiga bog`liqdir.

Sakrovchi UOM uchishning yarmida ttekis sekinlashib ko`tariladi, ikkinchi yarmida esa tekis tezlanib tusha boshlaydi. Sakrovchi UOMning ko`tarila boshlash nuqtasi uning erga tushish nuqtasidan balanda bo`lgani uchun UOM ning pastga tushish masofasi uning balandligidan ko`proq bo`ladi. Shuning uchun traektoriyaning pasayish qismi tikroq bo`ladi. uchish fazasida sakrovchining hech qanday ichki kuchi UOM traektoriyasini o`zgartira olmaydi. Sakrovchi havoda qanday harakat qilmasin UOM harakat qilayotgan parabolik egri chiziqni o`zgartira olmaydi. Sakrovchi uchishdagi harakatlar bilan faqat tana va uning ayrim qismlarini UOM ga nisbatan qaerda bo`lishini o`zgartirishi mumkin. Bunda tananing ayrim qismlari og`irlik markazlarini Biron tomonga ko`chishi tananing boshqa qismlarini qarama-qarshi tomonga muvozanatini saqlaydigan harakat qilishga majbur qiladi. Uchish vaqtidagi harakatlar barqaror holatni erga tushishga yordam beradi. Sakrashning barcha turlaridagi qo`nish paytida uchish tezligi tos-son, tizza to`piq bo`g`inlarini buki shva tarangligini oshirish bilan kamaytiriladi. Yozuvchi muskullar UOM harakati nolga teng bo`lguncha yo`l beradigan ish bajarib turiladi. Qo`nish paytida zo`r kelishni yumshatishda amortizatsiya masofasining, ya'ni erga birinchi bor tekkan paytdan to harakat to`la to`htaguncha UOM bosib o`tgan masofa qancha qisqa bo`lsa harakat shuncha tez to`xtaydi. Gavda shuncha keskin va shuncha qattiq larza eydi. Shuning uchun to`xtash yo`lini mumkin qadar uzaytirish kerak.

5-MAVZU: ULOQTIRISHNING ASOSIY TEXNIKASI

Reja

1. Uloqtirish, turtish va depsinish mashqlari yiroqqa otadigan snaryad ekanligi.
2. Snaryadni uchishi boshlang`ich uchish tezligi, uchib chiqish burchagi, havo qarshiligi.
3. Aylanishga depsinib yugurib kelish va yugurib kelishga tayyorlanish harakatlari.
4. Oxirgi kuch berishga tayyorlanish oxirgi kuch beri shva to`xtatish fazalari.
5. Boshlang`ich uchish tezligi va uchish burchagi. Havo qarshiligi, tayyorgarlik ahamiyati, uzoqqa tushishdagi ahamiyati.

SAVOLLAR

1. Snaryadlarni uzoqqa borib tushishi nimaga bog`liq?
2. Snaryadlarni uchib chiqish tezligi nimaga bog`liq?
3. Snaryad harakat qilayotgan uloqtiruvchining tezligi qachon uchib boradi?
4. Uloqtirishning harakat tezligi uloqtirishning turi fazolarida farq qiladimi?
5. Oxirgi kuch berish va unga tayyorlanish qanday bo`ladi?
6. Sport snaryadlarini uloqtirishda timol uchib chiqish burchagi necha gradus bo`lishi mumkin?
7. Uloqtirishdagi eng yaxshi natijaga erishish uchun qannaqa mashqLarga ko`proq e`tibor qaratish kerak?
8. Snaryadlarning tushishi uloqtirishning barcha fazalariga qanaqa ahamiyati bor?
9. Bosqon va diskda aylanish radiusi kamaysa, snaryadni harakat tezligi nima bo`lishi mumkin?
10. Uloqtirishda maksimal uzoqlikka otishga erishish uchun qobiliyatga bir-biriga mos bo`lishi kerak?
11. Snaryadlarni optimal uchib chiqish burchagi necha gradus bo`ladi?

TAYANCh IBORALAR

1. Uloqtirish
2. G'ayritsiklik
3. Uloqtirish mashq
4. Yakka tayanch
5. Kuch tayanch
6. Tayanchsiz faza
7. Kinetik energiya
8. Iroda kuchi
9. Ayrodinamik xususiyat
10. Qobiliyat
11. Oxirgi kuch berish
12. Qarshilik kuch.

1. Uloqtirish, turtish va depsinish mashqlari yiroqqa otadigan snaryad ekanligi

Uloqtirish mashqlari yiroqqa otadigan snaryad ekanligi, snaryadni uchishi, boshlang'ich uchish tezligi, uchib chiqish burchagiga havo qarshiligi. Sport snaryadini uloqtirishdan maqsad uloqtiruvchi harakatini chegaralovchi ma'lum qoidalarga snaryadni mumkin qadar uzoq masofaga tashlashdir.

Uloqtirish g'ayritsiklik mashqlari bo'lib uloqtiruvchidan katta asab muskul kuchini va yaxshi jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi. Busiz yuqori sport natijalariga erishish mumkin emas. Snaryadlarni uzoqqa borib tushishi sportchi uloqtirish texnikasini bilishiga bog'liqdir. Snaryadning uchishi va uloqtirish texnikasi mexnikaning umumiy qoidalariga bo'ysunadi. Lekin sport snaryadlarining konstruktsiya xususiyatlariga va musobaqa qoidasiga qarab uloqtirish texnikasi bir-biridan farq qiladi.

Har qanday jismning uchish masofasining uzoqligi uning boshlang'ich uchish tezligiga o'sib chiqish burchagiga va havo muhitining qarshiligiga bog'liq. Ammo bunda havo qarshiligini snaryadning uchib chiqish doyi bilan tushish joyi bir-biridan qanchalar past-baland ekanini va snaryadning aerodinamik xususiyatlarini hisobga olish kerak.

2. Snaryadni uchishi boshlang'ich uchish tezligi, uchib chiqish burchagi, havo qarshiligi

Disk va nayza uloqtirishda qarama-qarshi havo oqimiga nisbatan uchib chiqayotgan snaryadning holati katta ahamiyatga ega. Uloqtirish texnikasida snaryadni tushi shva uloqtirishning barcha fazalari muhim ahamiyati bor. Har xil snaryadni uloqtirishning o'ziga xos tomonlari bo'lsa ham umumiy talablarini aniqlash mumkin. snaryadni to'g'ri qo'lda tutish va uni uloqtirish paytida olib otish snaryadning tuzili shva uloqtirishi texnikasiga bog'liq.

Snaryadning tutish uloqtirishning barcha harakatlarini yaxshi bajarishga, ayniqsa oxirgi kuch birligida kuch va qo'l barmoqlari uzunligidan, uloqtirish paytigacha uloqtiruvchi qo'l muskullari sal bo'shshgan bo'lishidan to'liq foydalanishga va uloqtirish vaqtida harakatlarni yaxshi kuzatishga yordam berishi kerak. Snaryadning tuzilish usullari ularning tuzilishiga va uloqtirish texnikasiga bog'liq.

Snaryadni tuzilish usullari ularning tuzilishiga, uloqtirish texnikasiga ayrim paytlarda esa uloqtiruvchining xususiyatlariga ham bog'liq.

3. Aylanishga depsinib yugurib kelish va yugurib kelishga tayyorlanish harakatlari

Aylanish uloqtirishning barcha turlarida va yadro itqitishda yugurib kelishga tayyorlovchi dastlabki harakatlar bajariladi. Yugurib kelish deganda snaryal tutgan uloqtiruvchining tezligini oshirishga yordam beruvchi yugurish, irg'ish yoki burilish nazarda tutiladi. Bundan asosiy maqsad butun e'tiborni bo'lajak uloqtirishga yugurib kelishga to'g'ri boshlash uchun zarur bo'lgan holatda tura bilishga jalb qilib keyingi harakatlarni bajarilishini engillashtirishdir. Aylanish bilan yugurib kelish paytida snaryadni uchib chiqishi qo'lning markazga intiluvchi tortish kuchining snaryadga ta'siri tamom bo'lgan joydagi yoy nuqtasiga urunma baylab sodir bo'ladi. Aylanma yugurib kelish paytida snaryadga beriladigan tezlik o'z navbatida burchak

tezligiga va snaryadning aylanishi radiusi uzunligiga, ya'ni uloqtiruvchi bilan iborat sistemaning aylanish o'qida snaryad og'irlik markaziga bo'lgan masofaga bog'liqdir. Bir burchak tezligi paytida aylanish radiusi qancha katta bo'lsa, snaryadning to'g'ri chiziqli tezligi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Shunday qilib uloqtiruvchi aylanayotganda tanasining aylanish tezligini o'zgartirmasdan snaryadning aylanish markazidan uloqtirish hisobiga harakat miqdorini olish mumkin. Bundan imkoniyatlarni to'liq ishga solib bo'lganidan keyin bundan burchak tezligini oshirishga intilishi mumkin. aylanish vaqtida uloqtiruvchining aylanish tezligi ortib snaryadning aylanish radiusi kamaysa, snaryadning harakat tezligi pasayishi mumkin.

Yugurib kelishni aniq bajarganda snaryad bilan harakat qilayotgan uloqtiruvchining tezligi uloqtirishning boshlang'ich fazasidan oxirgi fazagacha tobora o'sib borishi kerak. Lekin bu tezlikning o'sishi uzluksiz va tekis bo'la olmaydi., chunki yugurib kelish mobaynida depsinish sharoiti o'zgarib boradi.

Uloqtiruvchi gavdasining ayrim qismlarining harakat tezligi uloqtirishning turli fazalarida anachagina farq qiladi.

Ammo snaryadning jila borish tezligi uning uchib chiqish paytida maksimalgacha qotishi kelak.

Uloqtirish maksimal uzoqlikka otishda erishish uchun uloqtiruvchining yugurib kelish tezligi uning tezlik va kuch qobiliyatiga va ulardan uloqtirishning yakulovchi fazasida foydalana olish qobiliyatiga mos bo'lishi kerak.

Yugurib kelish tezligi uloqtiruvchi yugurib kelayotganida o'zi hosil qilgan kinetik energiyadan oxirgi kuch berishda qanchalik to'liq foydalana olishga bog'liq. Yugurib kelishdan uloqtirishga o'tish juda murakkabdir. Uloqtiruvchining yugurib kelish tezligi qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik murakkab bo'ladi. Odatda oxirgi kuch berishga o'tishda yugurib kelish tezligidan etarli foydalanmaydigan uloqtiruvchilarda xuddi manna shu fazada sport natijalarini oshirish imkoniyati juda ko'p bo'ladi. yugurib kelib uloqtirishda eng yuqori yugurib kelish tezligidan effektiv foydalanish imkoniyati beradigan texnikani bilib olish uloqtiruvchi uchun juda muhimdir.

4. Oxirgi kuch berishga tayyorlanish oxirgi kuch berish va to'xtatish fazalari

Oxirgi kuch berishga tayyorlanish turli xil uloqtirishda turli xil bo'ladi. ammo barcha hollarda uloqtirish oxirida snaryadning harakat tezligini oshirish katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga oxirgi kuch berishni bajarmoq uchun uloqtiruvchi shunday holatda turishi kerakki, u holat oxirgi fazani snaryad eng katta tezlik bilan uchib chiqadigan qilib bajarishga imkon bersin.

Uloqtirishning ko'pchilik turlarida uloqtiruvchining snaryadning ayni qo'ldan chiqarishgacha bo'lgan oraliq holatlar uchun uloqtirilayotganida gavda oyoqdan to'liq foydalanish maqsadida UOM bir qancha pastga tushishi harakterlidir. UOM oxirgi kuch berish oldidan oyoqlarni ma'lum kenglikda va bo'g'ib mo'ljaldagi uchib chiqish nuqtasidan mumkin qadar uzoqda bo'lishi juda muhim. Snaryad uchib chiqish nuqtasidan eng ko'p uzoqlashtirmoq uchun snaryad tutgan qo'l bilan birga gavdani uloqtirish, yo'nalishga qarama-qarshi tomonga engashtiriladi yoki aylantirib buriladi. Gavda qismlarining bunday turishi uloqtiruvchi kuchning snaryadga ta'sir etish yo'lini uzaytirishga imkoni beradi. Oxirgi kuch berish oldidan oyoqlarning snaryadga nisbatana sezilarli damlatishdan maqsad ham shu. Uloqtirishga tayyorlanishda yugurib kelish tartibi buzimlasa, uloqtirish tomon umumiy olg'a intiluvchi harakat saqlab qolinsa, shundagina uloqtirish eng to'g'ri bajarilgan bo'ladi.

1. Oxirgi kuch berishga tayyorlanish jarayonida va snaryadni qo'ldan chiqarish paytida uloqtiruvchi gavdasining ayrim qismlari siljishi tezlikni o'zgarish harakteriga umumiydir. Buni sistematik ta'sir etsa ham bo'ladi. G.V.Vasilev fikricha, uloqtiruvchining snaryad bilan birga dastlabki tezligi (yugurib kelishga tayyorlanish va yugurib kelish).

2. Tezlikni umumiy oshirilishi (tezlanib yugurb kelish).

3. Uloqtiruvchi gavdasining yuqori qismiga va snaryadga nisbatan gavdaning pastki qismlari tezligini oshiramiz (oxirgi kuch berishga tayyorlanish).

4. Gavdaning pastki qismlari siljishini sekinlashtirib gavdaning yuqori qismlari bilan snaryad harakatini tezlatish.

5. Olg`a intiluvchi va aylanma harakatlarning to`liq to`xtatilishi.

Uloqtirishga tayyorlanish bilan uloqtirishning o`zi o`zaro bog`liq bo`lib, uni uloqtiruvchining bir holatidan ikkinchi holatiga oddiygina o`tish deb bo`lmaydi.

Oxirgi kuch berishdan to`la foydalanish uchun muskullarning elastik xususiyatidan foydalanish imkoniyatini ham nazarda tutish kerak. Uloqtirishni bajarayotganda muskullar elastikligidan foydalanish, sportchilarga iroda sarflash bir xil ekanligida ham snaryad ko`proq kuch bilan ta`sir etish imkonini beradi.

Muskullarni elastik xususiyatidan foydalanish ayniqsa yakulovchi fazadan muhimdir. Oxirgi kuch berilishida kuchning snaryadga ta`siri uloqtiruvchi kuch tayanch holatda ekanligidan eng zo`r bo`lishi mumkin. Bunda chap oyoq gavda bilan snaryadni ma`lum burchak ostida yuqoriga siljishiga yordam berishi kerak.

Chap oyoqni erga qo`yib bir qo`llab uloqtirishda shu oyoq sal bo`lsa ham bukiladi, oyoqning bukilishi miqdori uloqtiruvchining olg`a intiluvchi harakatining tezligiga va uning muskullardagi kuchiga bog`liq. Oxirgi kuch berishda hamma vaqt olg`a tomon yuqorilab yo`nalgan eng tez harakat bilan bir paytda ko`proq ham uloqtirish tomonga buriladi. Uloqtirishning turi va usuliga qarab elka kamari bilan tos harakatdagi munosabatda ba`zi bir farqlar bo`ladi. Yakulovchi kuch berilishini erga tayanib turganda bajarish foydalidir. Sakrab oyoqlarni faol almashtirib, bir qo`llab uloqtirishda tayanchsiz holda ham uncha ham katta bo`lmagan yakunlovchi kuch ta`sir etishi mumkin. Yakunlovchi kuch berishdagi uloqtirish texnikasida uloqtirish ijro etilayotgan maydoncha chegarasidan chiqib ketmay muvozanat saqlab qolish zaruriyati ham hisobga olinadi.

Uloqtirish turiga va texnikasiga hamda musobaqa qoidalarida belgilangan shartlarga qarab, uloqtirishdagi harakat turli xil oxirlanadi. Bir qo`llab katta tezlikda uloqtirishda sakrab oyoqlarni faol almashtirish qo`llaniladi. Bu snaryad uchib chiqqanidan keyin gavda harakatini keskin to`xtatib qolish imkoniyatini beradi.

5. Boshlang`ich uchish tezligi va uchish burchagi. Havo qarshiligi, tayyorgarlik ahamiyati, uzoqqa tushishdagi ahamiyati.

Snaryadning uchib chiqish nuqtasining balandiligi va uning nisbatan qaysi joyda bo`lishi turil xil uloqtirishda turlichadir. Chunonchi, yadro nayza va granataning uchib chiqishi qo`lning eng yuqori ko`tarilgan nuqtasiga to`g`ri kelishi bilan birga yadro itqitishda qo`lning to`la to`g`rilanishiga hamto`g`ri keladi. Aylanib uloqtirishda snaryadni elka bo`g`iniga yaqin balandlikdan, ya`ni qo`lga gorizontal holatga yaqinlashayotganida chiqarib yuborish odatda snaryad borib tushadigan masofani katta aytiladi. Oxirgi kuch berishda uloqtiruvchi kuchning snaryadning uzoq uchishining ta`minlanishi kerak. Sport snaryadlarini uloqtirishda optimal uchib chiqish burchagi 45 gradusdan kamroqdir. Havo muhitining ko`tarma kuchi ko`proq ta`sir etadigan ayrim snaryadlarning aerodinamik xususiyatlaridan yaxshi foydalanish uchun ham uchib chiqish burchagini kamaytirish kerak.

Sport snaryadlarining optimal uchib chiqish burchagi har qaysi uloqtiruvchi uchun turli xil bo`lib snaryadning konstruksiyasiga havo oqimining yo`nalishi va kuchiga bog`liqdir. Ufqqa nisbatan uchib chiqish konveyda 36-37 gradus, yadroda 38-39 gradus eng kuchli sportchilardir.

Uchib chiqish paytida uloqtiriladigan snaryadning hammasi ham aylanadi. Snaryadning aylanishining aylanishi shu kuchning og`irlik markazidan o`tadigan aylanish o`qiga nisbatan qanday yo`nalgan ekaniga bog`liq. Snaryadning aylanish tezligi esa kuch momenti miqdoriga bog`liq. Kuch momenti qancha katta bo`lsa, snaryadning burchak tezligi shuncha katta bo`ladi. Uloqtirishning boshqa turlarida snaryadning yumalab chiqish yo`nalishi bilan foydali birikib ketadi. Uloqtirishning boshqa turlarida snaryadning dastasidan tutiladi, shuning uchun og`irlik markazi tutish nuqtasidan ancha uzoqda bo`lib, tutish nuqtasi oldida bo`la olmaydi. Bunda snaryadning uchish vaqtidagi aylanishi ham og`irlik markazlari atrofida sodir bo`ladi. Ammo

ulardagi aylanish momenti tutish nuqtasidan o'tgan o'q atrofida hosil bo'ladi. bu momentning yo'nalishi uloqtiruvchining oxirgi kuch berishdagi aylanishi yo'nalishiga to'g'ri keladi. Snaryad og'irlik markazining burchak tezlanishiga nisbatan ortiqligi snaryadning aylanish tezligi binobarin, uning aylanish yo'nalishini belgilaydi.

Snaryadning uchish holati o'zgaranda qarshilik kuchi o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga snaryadning boshlang'ich uchish tezligi anchagina katta bo'lgan taqdirdagina havo muhitining qarshiligi hisobga olinadi. Havoda harakat qilayotgan har qanday jism muayyan qarshilikka duch keladi. Bu qarshilik harakatdagi jismning tezligiga, katta-kichikligiga, shakliga va jismning havo oqimining yo'nalishiga nisbatan qanday turganligiga bog'liqdir.

Mexanikadan ma'lumki, harakat qilayotgan jismga havo muhitining qarshiligi jismning harakat yo'nalishiga perpendikulyar tekislikdagi proektsiyasiga va tezlik kvadratiga proporsionaldir. Sportchi uloqtirishda qarshilikni aniqlayotganda avvalo snaryadning havo oqimiga duch keladigan yoki shu oqim bo'ylab harakat qilayotgan ko'ndalang qismi sathining kattaligini va snaryadning harakat tezligini nazarda tutishi kerak. Demak, nayza kabi snaryadning havoda qanday uchayotganiga bog'liq. Masalan, disk oldinga to'ppa-to'g'ri qirradi bilan uchishi yoki uning sathi qiyalik hosil qilib uchishi mumkin. nayza uloqtirishda nayzaning uchib chiqish paytida bo'ylanma yoki uchish traektoriyasiga ko'p miqdorda mos tushmasa havo qarshiligini oshirib yuborib nayza borib tushadigan masofani kamaytirib qo'yishi mumkin.

6-MAVZU: SPORT MAKTABLARIDA VA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA SPORT ISHLARINING O`ZIGA XOSLIGI

Reja

1. Umumta'lim maktablarida sport seksiyalarining o`rni.
2. O`quv guruhlarining to`ldirilishi va o`quv trenirovka ishi.
3. Sport seksiyasida qatnashuvchi engil atletikachining rejimi.

SAVOLLAR

1. Maktab engil atletika seksiyasiga kimlarni qabul qilinadi?
2. Engil atletika seksiyasi mashqlari qaysi vaqt bo`ladi?
3. O`quv guruhlaridagi o`qish davomiyligi va ularning o`quvchilar bilan minimal to`ldirish qanday?
4. Sport maktablari asosiy uslubiy qoidalar haqida?
5. Eng yaxshi dam olish tegishli gigiena sharoitida nima?

TAYANCh IBORALAR

1. Estafeta
2. Klassifikatsiya normalari
3. Mashg`ulot
4. BO`SM
5. IBO`OSM
6. OSMM
7. SIMI
8. Gigienik rejim
9. Organizmning faoliyati

1. Umumta'lim maktablarida sport seksiyalarining o`rni

Maktab engil atletika seksiyasiga hamma fanlardan yaxshi o`zlashtirayotgan, shug`ullanishni istagan va trenirovka qilish uchun vrach ruxsat bergan o`quvchilardan tashkil topadi. O`quvchilar yoshiga, jismoniy va texnikaviy tayyorgarligiga qarab guruhlariga bo`linadi:

Tayyorlov guruh 11-12 yosh

Kichik o`smirlar guruhi 13-14 yosh

O`rta o`smirlar guruhi 15-16 yosh

Katta o`smirlar guruhi 17-18 yosh

Tayyorlov va kichik o`spirinlar guruhlarida mashg`ulotlar 1-1,5 soatdan haftada 2-3 marta. O`rta va katta o`smirlik guruhlarida esa 2 soatdan 3 marta o`tkaziladi. Mashg`ulotlar yil bo`yi darslardan tashqari vaqtda o`tkaziladi. Ularda engil atletikadan tashqarii gimnastika, sport o`yinlari va boshqa turlar kiritiladi. Amaliy mashg`ulotlarni imkoni boricha qishin-yozin ochiq havoda o`tkazgan ma`qul. Yozgi ta`til vaqtida shug`ullanuvchilarga umumiy jismoniy kamolot va mashq bajarish texnikasidagi bilimlarni mustahkamlash uchun individual uy vazifalarini berish tavsiya qilinadi. Bundan tashqarii ularni har kungi gigienik zaryadkani bajarishga o`rgatib borish zarur. Kichik yoshli guruhda asosiy e`tibor umumiy jismoniy tayyorgarlikka taalluqli mashqlar

texnikasini o'rgatishga qaratiladi. Mashg'ulotlar qiziqarli o'tishi uchun mashqlar harakterini o'zgartirib ko'proq harakatli o'yinlar va oddiy musobaqalar o'tkazib turish kerak. O'rta va katta yoshdagi guruhlariga tanlab olingan tur texnikasini o'rgatish bilan birgalikda umumiy va maxsus tayyorgarlikka ham ko'proq e'tibor berish lozim.

O'quv materiallarini o'zlashtirish sifati maktab musobaqa kalendariga binoan o'tkaziladigan musobaqalarda tekshiriladi. Bundan tashqarii o'quvchilar tuman, shahar, viloyat va respublika musobaqalarida engil atletika beshkurashlarida, qizlar esa uchkurashda qatnashadilar.

Maktabdagi engil atletika sektsiyasining o'rta va katta yoshlilar guruhlari materiallari maktab fizkultura jamoasi sektsiyasining dasturida ko'rsatilgan. Ayniqsa, tayyorlov va kichik guruhlardagi o'quvchilarning mashg'ulotlariga to'xtalib o'tish kerak. Eng muhimi, ularning sistemasiga sakrash va og'ir snaryadlarni otish va uloqtirishga bog'liq turli xil og'ir mashqlar bilan katta yuklamalarni bermaslikni esdan chiqarmaslik kerak. Kichik guruhlardagi o'quvchilarning mashg'ulotlarida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshirishga yordam beruvchi mashqlar qo'llaniladi. O'quvchilar yugurish texnikasini egallab, yugurish tezligini to'g'ri oshirib, uni saqlay olishlari, ma'lum tezlikda estafeta Taeqchasini zonada uzata olishlari, yugurib kelib depsina olishlari, to'p va granatani nishonga va uzoqqa ota olishlari kerak. O'quv mashg'ulotlari o'quvchilarni sportcha yurishlari, pastki startdan yugurib chiqish, oyoqlarni yig'ib uzunlikka sakrash, hatlab o'tish, perekidnoy usulida balandlikka sakrash, disk uloqtirish, nayza va yadro uloqtirish texnikalari bilan tanishishlari kerak.

O'rta guruhlardagi o'quvchilar 60-100 m masofalarga yugurish trenirovka qila boshlaydilar. 2000 m.na yugurish bilan tanishadilar. 4 x 100 m.li estafetada uzatish texinkasini takomillashtiradilar va g'ovlar osha yugurishni o'rgana boshlaydilar. O'quvchilar granatani uzoqqa otishni takomillashtiradilar. Yadro otish va diskni burilib uloqtirish texnikasini o'rganadilar. Yugurib kelib nayza otish texnikasi bilan tanishadilar va uzunlikka, balandlikka sakrash uchun yugurib kelish va depsinish texnikalarini takomillashtiradilar. O'spirinlar ta'limning ikkinchi yili langar bilan sakrash texnikasi bilan tanishadilar. Katta guruhdagi o'quvchilar maxsus jismoniy tayyorgarlikni oshira borib, tanlagan sport turida yuqori natija ko'rsatish uchun trenirovka qila boshlaydilar. Ular bu paytda pastki sportni texnika jihatidan to'g'ri bajarish, burilish, to'g'ri yo'lkada yugurish, marraga kelishni bilishlari kerak. Bundan tashqarii g'ovlar osha yugurish texnikasini ham egallashlari lozim. Uzunlikka va balandlikka texnik jihatdan to'g'ri sakray olishga o'rgatish zarur.

2. O'quv guruhlarining to'ldirilishi va o'quv trenirovka ishi

Hozirgi zamon sport maktablarida quyidagi o'quv guruhlari ajratiladi: boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari (3 yillik ta'lim); o'quv-trenirovka guruhlari (4 yillik ta'lim); sport shug'ullanuvi guruhlari (3 yillik ta'lim) va oliy sport mahorati guruhlari (3 yillik va undan ortiq ta'lim).

Har bir guruhning o'quvchilar bilan to'ldirilishi va o'quv soatlari soni jadvalda ko'rsatilgan.

O'quv guruhlarining to'ldirilishi va o'quv trenirovka ish tartibi

O'quv yili	O'quvchilar yoshi	Minimal soni		O'quv soatlarining maksimal soni		Umumiy maxsus va sport talablari
		Guruh	O'quvchilar	Haftada	yilda	

Boshlang'ich tayyorgarlik guruhlari

1	10	5	20	6	312	Umumiy va maxsus tayyorgarlik bo'yicha me'yorlar hamda sinov talablarini bajarish
2	11	5	18	6	312	
3	12	4	16	8	416	

O'quv-trenirovka guruhlari

1	13	5	12	12	624	Umumiy va maxsus tayyorgarlik bo'yicha
2	14	4	12	16	832	

3	15	3	10	18	936	me'yorlar hamda sinov talablarini bajarish
4	16	2	10	20	1040	

Sport takomillashuv guruhlarini

1	17	1	8	22	1144	50 % SUN
2	18	1	6	24	1248	SUN
3	19	1	6	28	1456	50 % SUN

Oliy sport mahorati guruhlarini

1	19	1	4	30	1560	SU
2	20	1	4	30	1560	SU (tasdiqlash)
3	21 va kattalar	1	4	30	1560	50 % XTSU

BO`SM bo`limlari boshlang`ich tayyorgarlik guruhlarini va o`quv trenirovka guruhlaridan shakllanadi. O`quv-trenirovka guruhlarini yuqori sport ko`rsatkichlariga ega bo`lganida va kelgusida sportda o`shishi uchun zarur imkoniyatlar mavjud bo`lgan taqdirda BO`SMda sport takomillashuvchi guruhlarini tashkil qilish mumkin. bunday guruhlarining ochilishi BO`SM yuqoridagi qaysi bir tashkilotga qarashli bo`lsa, shu tashkilotning qarori bilan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashgan bolalar va o`smirlar Olimpiya o`rinbosarlari maktablarida boshlang`ich tayyorgarlik, o`quv-trenirovka va sport takomillashuvchi guruhlarini tashkil etiladi. Bu guruhlardan tashqari IBO`OO`Mda oliy sport mahorati guruhlarini tashkil qilinishi mumkin.

Oliy sport mahorati maktablarida faqat sport takomillashuvi guruhlarini va oliy sport mahorati guruhlarini tashkil etiladi hamda faqat ayrim hollardagina OSMMda o`quv-trenirovka guruhlarini tashkil qilinishi mumkin.

Sportga ixtisoslashgan maktab-internatning sport engil atletika bo`linmasi umuta`lim maktabining kamida 6-sinfini muvaffaqiyatli tugatgan. BO`SMda ma`lum bir tayyorgarlikdan o`tgan yoki musobaqalarda o`zini yaxshi ko`rsatgan, sport bilan shug`ullanishga o`ta qobiliyatli bolalar hamda o`smirlarni tanlov asosida tanlab olish yo`li orqali to`ldiriladi to`ldiriladi.

Simida o`quv-trenirovka guruhlarini va sport takomillashuvchi guruhlarini tashkil qilindi. Sport maktablarida o`quv yili 1 sentyabrdan boshlanadi. Hamma turdagi sport maktablari uchun tuzilgan yagona dastur tashkiliy tuzilmani o`smir sportchilar ko`p yillik tayyorgarlik tizimining ilmiy-uslubiy tizimi bilan boshlang`ich tayyorgarlik guruhlaridan to`liq oliy sport mahorati guruhlarigacha birlashtirishga imkon beradi. Turli miqyosdagi sport maktablarida zahira tayyorlashda quyidagi asosiy uslubiy qoidalarni hisobga olinadi.

Bolalar, o`smirlar, o`spirinlar va katta yoshdagi sportchilarni tayyorlash vazifalari, vositalari hamda uslubini qat`iy izchilligi.

Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari hajmining bir tekis olib borishi. Ular o`rtasidagi nisbat muntazam o`zgarib turadi. Yildan-yilga maxsus jismoniy tayyorgarlik hajmi (trenirovka nagruzkasining umumiy hajmiga nisbatan) ortib boradi va tegishli ravishda umumiy jismoniy tayyorgarlikning o`shishi kamayadi.

Trenirovka nagruzkalari hajmi va shiddatining izchilligi, ko`p yillik trenirovkalar davomida ularning to`htovsiz oshishi.

Engil atletikaning texnik-taktik harakatlariga o`rgatishni sport maktablari dasturidagi nazariy masalalarni chuqur o`rganish bilan birga olib borish.

O`smir sportchilar bilan ko`p yillik ish jarayonida trenirovka va musobaqa nagruzkalarini qo`llash izchilligi tamoyiliga qat`iy amal qilish, sport maktablari o`quvchilarini o`qitish va tarbiyalash ntijalarini kompleks baholashni hisobga olgan holda sportchilarning ko`p yillik tayyorgarligi to`g`ri tashkil qilinsagina, Ushbu qoidalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoni tug`iladi.

BO`SM (IBO`OO`M) da o`quv-trenirovka mashg`ulotlarining asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- jadval bo`yicha trenirovkalar, uy vazifalarini bajarish;

- o`quv videofilmlari va kinofilmlari;
- kinogrammalar hamda sport musobaqalarini tomosha qilish;
- sport maktabi qaysi tashkilotga tegishli bo`lsa, shu tashkilot tomonidan tasdiqlangan sport tadbirlarining kalendar rejasiga muvofiq sport musobaqalari hamda match uchrashuvlarida ishtirok etish;
- butun yil davomida mashg`ulotlarni o`tkazish va yozgi hamda ta`til davrlarida o`quvchilarni faol dam olishlarini ta`minlash maqsadida sport maktabida sog`lomlashtirish sport oromgohlari tashkil qilinadi.

3. Sport seksiyasida qatnashuvchi engil atletikachining rejimi

Gigiena rejimiga qattiq rioya qilmay turib sportda yuqori natijalarga erishib bo`lmaydi. Rejimdagi eng muhim narsa – to`g`ri tuzilgan kun tartibini aniq bajarishdir. Har qaysi kunni ertalabki jismoniy mashqlar bilan boshlash, undan keyin esa dushga tushib cho`milish, juda bo`lmaganda artinish shartdir. Trenirovkadan keyin ham ternii yuvib tashlash uchun iliq dushga tushgan ma`qul. Qisqa muddat davom etadigan sovuq dushga tushsa ham bo`ladi, lekin bunga odatlanish kerak. Haftasiga bir marta, unchalik kuch kelmaydigan trenirovka mashg`ulotidan keyin bug`xona, hammomga tushib turish kerak. Bu trenirovka va musobaqadan keyingi tiklanish protsessini tezlashtiradi. Bug` qUruq bo`lgani, undan keyin esa qisqagina vaqt sovuq dushga tushilgani tuzuk. Katta kuch keladigan og`ir trenirovkadan keyin yaxshisi faqat dushga tushib qo`ya qolish kerak.

Mashq qilishda muntazam massaj qilib turishning muhim ahamiyati bor. Trenirovka tugagan zahoti qilingan massajning foydasi ko`proq bo`ladi. agar massaj onda-sonda qilinadigan bo`lsa, (masalan, haftada bir marta) kam kuch keladigan trenirovka mashg`ulotlari tugagandan keyin qilingani ma`qul. Bundan tashqarii hamma engil atletikachilar uchun har kuni uxlashdan sal (10-15 minut) oldin o`z-o`zini massaj qilish zarur. Trenirovka protsessida qisqa vaqtli quyosh vanna qabul qilish (harakatda) foydalidir. Musobaqaga 2-3 kun qolganda ataylab, quyosh vanna qabul qilish kerak emas. Qishda tog` quyoshida (simob kvartslı lampada) nurlanish foydalidir. Ammo bu vrach buyurgan va vrach nazorat qilib turgandagina mumkin.

Dam ola bilish ham juda muhim. Ozroqqina vaqt dam olinadigan bo`lsa, hammadan yaxshisi oyoqni boshdan sal balandroq ko`tarib, gavgani erkin qo`yib yuborib, muskullarni bo`shashtirib va mumkin qadar hech nimani o`ylamay yotish kerak. Trenirovka va musobaqa paytidagi ayrim mashqlar o`rtasida ham shunday dam olish kerak. Lekin eng yaxshi dam olish tegishli gigiena sharoitidan uyqudir. Trenirovka qiladigan katta yoshli atlet 8-9 soat uxlashi kerak. Iloji bo`lsa tushki ovqatdan keyin yotib dam olish (dam olish soati) foydalidir. Ovqatlanish masalasi ham trenirovka bilan chambarchas bog`liq. Har boim bir vaqtda ovqatlanish kerak. Asli xilma-xil ovqat eb turgan ma`qul. Ammo sport ixtisosiga qarab tegishli dieta ham foydalidir.

Organizmning faoliyati uchun suv-tuz almashinuvi normal bo`lishi juda muhim. Chanqash organizmning suvga ehtiyoji borligini bildiradigan aniq signaldir. Lekin organizm suvni o`zlashtirsagina chanqoq qonadi. Suv o`zlashmaguncha, odamnig suv ichkisi kelaveradi. Chanqoqni bostirish uchun 1-2 soat davomida oz-ozdan iliq su vyoki issiq choy ichish tavsiya etiladi. Trenirovka boshlash oldidan va trenirovka tugagan zahoti suv ichmaslik kerak. Bunday paytda og`izni chayqagan yoki 2-3 qultumgina suv ichgan ma`qul. Ovqatni trenirovkadan 2-3 soat oldin va undan 1-2 soat keyin eyish kerak. Tana og`irligini doim zarur darajada saqlab ortiqcha yog` qatlamlari yo`l qo`ymaslik kerak.

Chekish va alkogolli ichimliklar sportga to`g`ri kelmaydi. Trenirovka qiladiganlarga bular qat`iyan man qilingan, chunki ular organizmning ish qobiliyatini pasaytiribgina qolmay sportda muvaffaqiyatli erishish uchun to`squinlik qilibgina qolmay balki sog`likka ham zarar etkazadi.

ADABIYOTLAR

1. «Engil atletika». Jismoniy madaniyat institutlari uchun darslik. N.G.Ozolin, D.P.Markov. Moskva, 1989 yil
2. «Engil atletika». D.A.sechenov. Moskva, 1956 yil.
3. «Sport trenirovkasi asoslari». N.N.Matveev. Moskva, 1974 yil.
4. «Engil atletika trenerlari uchun». L.S.Xomenkova. Moskva, 1974 yil.
5. «Engil atletika». I.Niyozov. Farg`ona, 2000 yil.
6. «Jismoniy tarbiya vositalari». A.Abdullaev. Farg`ona, 1999 yil.
7. «Типовые положения о детско-юношеской спортивной школе». Москва, 1977 г.
8. «Легкая атлетика». Н.Г.Озолин, В.И.Воронкина, Ю.Н.Примаков. Москва, 1999 г.
9. «ГИМФВМ спорта». Ж.К.Холодов. Москва, 2002 г.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ЕНГИЛ АТЛЕТИКА

фанидан

МАЪРУЗАЛАР МАТНИ
(махсус сирт=и билим талабалари учун)



НАМАНГАН-2007 ЙИЛ

Биз ыз истеъдодли, фидойи болаларимизга,
фарзандларимизга билим ва касб чы==иларини
забт этиши учун =анот беришимиз керак.

И.А.Каримов

Енгил атлетика быйича услубий =ылланма

Муаллифлар: доцент. Х.У.Орти=ов
 катта ы=итувчи А.Назимов

Та=ризчи : п.ф.н. Б.Бойбобоев

Ушбу маърузалар матни «Жисмоний тарбия назарияси ва спорт турларини ы=итиш услубиёти» кафедрасида ва факультет, Наманган давлат университети ы=ув-услубий шайъати томонидан кыриб чи=илган.

1-МАВЗУ: ЕНГИЛ АТЛЕТИКА РИВОЖЛАНИШИНИНГ ТАРИХИ

Режа

6. Енгил атлетика спорт турининг келиб чи=иши.
7. Енгил атлетика Грецияда ва Олимпия ыйинларида.
8. Замонавий енгил атлетикани тикланиши ва пасайиши.
9. Шозирги замон Олимпия ыйинлари.
10. Муста=ил Ызбекистон Олимпиада ыйинларидаги иштироки

САВОЛЛАР

2. Енгил атлетика маш=лари =ачон келиб чи==ан?

3. Жисмоний тарбияда, енгил атлетика маълум даражада =ачон мустақил была бошлади?
4. Эр.ав. Олимпия ыйинлари =ачон ытказилган?
5. Нечанчи Олимпия ыйинларидан бошлаб аёллар учун енгил атлетика мусоба=алари ытказилди?
6. Энг аввал бошқа мамлакатларга =араганда енгил атлетика =айси давлатда ривожлана бошлади?
7. 1952 йили =айси давлатда Олимпия ыйини ытказилди?
8. Ўзбекистон спортчилари мустақил давлат сифатида нечанчи йилдан бошлаб енгил атлетикадан Олимпия ыйинларида =атнаша бошладилар?
9. Нечанчи Олимпия ыйинларидан бошлаб кыркураш быйича мусоба=а ытказилди?

ТАЯНЧ ИБОРАЛАР

1. Енгил атлетика маш=лари
2. Олимпиада
13. Стадия
14. Стадион
15. Мусоба=а
16. Низом
17. Атлетика клуби
18. Ассоциация
19. Мащорат
20. Тыгарак
21. Федерация
22. НААФ

1. Енгил атлетика спорт турининг келиб чи=иши

Енгил атлетика маш=ларининг келиб чи=иши тарихи жуда =адим замонлардан бошланади.

Одамлар югуриш, сакраш ва уло=тиришни табиий зарур шаракат сифатида =адим замонлардан бери мешнатда ва кундалик щаётда =ыллаб келганлари маълум. Аммо уларнинг жисмоний тарбия воситаси сифатида ва спортнинг бир тури сифатида расм былганига =адар куп минг йиллар ытди.

Ибтидоий жамоа тузуми даврида енгил атлетика маш=лари одамларнинг мешнат фаолияти билан чамбарчас бо\ли= былган. Улар инсоният =улдорлик жамиятига ыта бошлашига я=ин жисмоний тарбияда маълум даражада мустақил была бошлади . Енгил атлетика жисмоний маш=ларнинг бош=а турлари =атори улар =улдорликнинг шарбий жисмоний тайёргарлигида катта ырин эгаллади ва =абилалар шамда умум юнон диний байрамларининг муштим =исмини ташкил этадиган былди. Бундай тантаналарнинг энг ашамиятлиси Олимпия ыйинлари щисобланади.

Кып манбааларда айни=са, хал= турмушида тез югуриш, югуриб келиб узунликка сакраш ва тош уло=тиришдан иборат уч кураш мавжуд былган.

